**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK:*

**Djafarova Nigina Alisherovna**

# “TURIZMDA STATISTIK MA’LUMOTLARNI YIG’ISH METODOLOGIYASINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH YO’LLARI”

**5A 61030 – TURIZM (XALQARO VA ICHKI TURIZM)**

**Magistr**
**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

## Dissertatsiya

Ilmiy rahbar: i.f.n. Ibragimov N.S.

**Buxoro-2017**

**Buxoro Davlat Universiteti, Turizm fakulteti 5A610301 – Turizm (xalqaro va ichki turizm ) mutaxassisligi magistratura ta'lim bosqichi II kurs talabasi Djafarova Niginaning "Turizmda statistik ma'lumotlarni yig'ish metodologiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

## ANNOTATSIYA


Turizm statistikasi bu – turizm oqimi va tendensiyalar (xalqaro, milliy, hududiy va h.z.), uning tuzilishi, sayyohlarni qabul qiluvchi va jo'natuvchi mamlakatlar to'g'risida doimiy yig'iluvchi, tahlil qilinuvchi va chop etiluvchi axborotdir. Turizm statistikasini xalqaro darajada BTT (Butunjahon Turizm Tashkiloti) olib boradi.

Turizm sohasida statistik kuzatuvlar 2 asosiy usullar orqali namoyon etilgan: chegaradagi qaydlar va joylashish xizmatini taklif etuvchi tashkilotlaridagi tashriflarni ro'yxatga olish. Bundan tashqari, bank usuli hamda tanlovli tekshirish ham qo'llanilishi mumkin.

BTT dunyo mamlakatlarini 6 ta turistik makrohududga ajratadi:

1. Yevropa – Shimoliy, Janubiy, Sharqiy, G'arbiy va Markaziy Yevropa, hamda Sharqiy O'rtayer dengizi mamlakatlari (Izroil, Kipr, Turkiya).
2. Amerika – Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika mamlakatlari, orolda joylashgan davlatlar hamda Karib havzasi hududlari.
3. Osiyo va Tinch okeani – Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya.
4. Afrika – Afrika mamlakatlari, Misr va Liviyadan tashqari.
5. Janubiy Osiyo – Janubiy Osiyoning barcha davlatlari.
6. Yaqinsharq – G'arbiy va Janubi-G'arbiy Osiyo, Misr va Liviya.

Statistika komissiyasining faoliyat ko'rsatuvchi organi bo'lib BMT Statistik bo'lim Sekretariati hisoblanadi. U jahon mamlakatlari taraqqiyoti to'g'risidagi axborotni yig'adi, BMT tizimidagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik kabi global darajadagi ma'lumotlar saqlanadigan joy vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunga BMT Statistika Komissiyasi Statistika bo‘lim bilan hamkorlikda global darajada statistik faoliyatni uyushtiradi. U 230 dan ortiq mamlakat va hududlar statistika xizmatlari, hamda 2 mingga yaqin turli xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan.

Xalqaro turizm statistikasida axborot yig‘ishning turli shakllari qo‘llaniladi. Statistik kuzatuvlar hisobot yoki maxsus o‘tkaziladigan tadqiqot vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakat chegarasidagi statistik hisob davlatga kirish va undan chiqishdagi immigratsion nazorat vositalari orqali olib boriladi. U nazorat-o‘tkazish nuqtalarida, aeroportlar, portlar va h.z.larda amalga oshiriladi. Sayohat qiluvchi shaxslar to‘g‘risidagi asosiy axborot maxsus regisrtatsiya shakllaridan olinib, ularga kirish (chiqish) kartochkalari, shu bilan birga, xorijiy passport va vizalar kiradi. Unda turistning yoshi, doimiy yashash joyi, sahoyat maqsadi va muddati kabi ma’lumotlar mujassam bo‘ladi.

Chegaradagi hisob ko‘pgina mamlakatlarda qo‘llaniladi. Ayrim davlatlar o‘rtasida chegara statistikasini olib borish uchun ikki tomonlama yaqin hamkorliklar o‘rnatilgan. Masalan, Kanada davlati AQSH dan sayohat qilib qaytgan fuqarolari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘adi va ularni AQSH milliy turistik boshqaruv organing taqdim etadi. AQSH va Kanadadan tashqari, chegaradagi tashriflar statistikasi Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Kipr, Portugaliya, Avstraliya, Singapur, Turkiya, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Polsha, Vengriya, Bolgariya) va boshqa davlatlarda qo‘llaniladi. Kirish (chiqish) kartochkalari shakllari mamlakatlarda turlicha bo‘lganligi sababli, WTO tomonidan unga a’zo bo‘lgan davlatlarda qo‘llanilishi tavsiya etilgan namuna shakli ishlab chiqilgan

Statistikada barcha xatoliklar atayin qilingan va bexosdanlarga ajratiladi. Bexosdan yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar tasodifiy yoki tizimli xususiyatga ega. Atayin xatoliklar, so‘rovda qatnashuvchilar bilan bir qatorda ro‘yxatdan o‘tqazuvchilarning xato yozishi, bilmasligi va boshqalar sababli vujudga keladi. Ular doimiy bir xilda kamaytirilgan yoki ko‘paytirilganligi sababli ko‘zga tez

tashlanadi va ushbu muammo keng miqyosdagi kuzatuvlar olib borilganda o‘zaro birlashib, bartaraf bo‘lib ketishi sababli kuzatuv natijalarida jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Atayin qilinmagan tizimli xatoliklar so‘rovlardagi yaxlit olingan miqdorli ko‘rsatkichlar (tashrif buyuruvchi yoshi, uning daromadi, tunashlar soni va hokazo) sababli yo‘l qo‘yiladi. Yoshni registratsiya qilayotganda, ko‘pincha, 0 va 5 raqamlarga moslab yaxlitlashtirish kabi holatlar kuzatilgan. Masalan, qaydlarga ko‘ra 40 yoshli turistlar 39 yoki 41 yoshlilarga nisbatan ancha ko‘proqdir. Bu hodisa statistikada **yoshni to‘plamlashtirish** deb nom olgan. Bunday xatoliklar yig‘ilgan statistik materialga ishlov berilayotganda tuzatiladi. Atayin qilingan xatolar, nomidan bilish mumkinki, javob beruvchilarning ongli ravishda haqiqatni yashirish niyatida savolga noto‘g‘ri javob berishlari natijasida vujudga keladi.

Hali hamon ko‘pgina mamlakatlarda, shu qatori O‘zbekistonda ham, statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda turizmga oid atamalar va sayohat qiluvchi shaxslarning klassifikatsiyasida nomuvofiqlik va tushunmovchiliklar mavjuddir. Masalan, “turist” so‘zi doimiy yashash joyidan (1 - 5 va undan ko‘p tunashlar) va sayohatchilarning yoshlari (14 yosh va undan yuqori) hamda sayohat maqsadi kabi tushunchalar amaliyotda turlicha qo‘llaniladi. 40% mamlakatlarda ekskursantlar tashrif buyuruvchilar hisobiga kiritilmaydi, 10 % davlatlarda esa ish safaridagilar sayohatchilar hisobiga kiritilmaydi. Shu bilan birga, tashriflarni ro‘yxatga olishda ayrim hollarda mehmonning doimiy yashash joyiga, boshqa hollarda esa shaxslarning fuqaroligiga qarab amalga oshiriladi. Bularning barchasi xalqaro tahlil va taqqoslarni amalga oshirishda to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda dunyoning hech bir mamlakatida turizm sohasining to‘liq hajmdagi tizimli kuzatuvi tashkil etilmagan. WTO hisobotlariga binoan, sayyoramizning 0.5 % aholisi istiqomat qiluvchi 18 mamlakat tomonidan xalqaro turistik oqimlarga doir hech qanday axborot taqdim etilmagan. Ularning ko‘pchiligi iqtisodiy kam rivojlangan va jahon turistik bozorida uncha katta

bo‘lmagan hissaga ega. Yillik statistik ma’lumotlarni taqdim etiluvchilar ro‘yxatiga 202 mamlakat (hudud) kiritilgan. Hattoki, Fransiya statistik faoliyat yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakat bo‘lishiga qaramay, ushbu davlatning hisoblari ham katta kamchiliklar bilan olib boriladi. Turistik oqimlar statistikasida ekskursiya va qisqa muddatli ish safarlari ma’lumotlari muntazam taqdim etiladi.

“O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-dekabr 2016-yildagi farmoni 1-bo‘lim 2-bandida:*“...turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish*”, hamda *“...turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish”* vazifalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirishdagi asosiy qadamlardan biri xalqaro talablarga javob beruvchi, barcha statistik ma’lumotlarni yagona ko‘rsatkichlarga birlashtirishga ko‘maklashuvchi umumiy metodik asosni ishlab chiqish va joriy qilishni talab qilmoqda.

O‘zbekistoning turizm statistikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot va kuzatuvlar matijasida turli kamchilik va tafovutlar aniqlandi. Ularni bartaraf etish yo‘lida qabul qilingan tadbirlardan biri, jahon standartlariga mos keladigan eng muhim bo‘lgan ko‘tsatkich va tushunchalarni o‘zida birlashtirgan metodik qo‘llanma tuzish bo‘ldi. Metodik qo’llanma 3 bo’limga ajratilib, quyidagi ko’rsatkichlarni o’zida mujassamlashtirgan:

**Sayohatchi** – turli geografik nuqtalar orasida xilma-xil maqsadlar bilan ko‘chib yuruvchi biron-bir shaxs.

**Safar** – biron-bir shaxsning doimiy yashash joyidan jo‘nab ketgan vaqtdan boshlab qaytib kelishgacha bo‘lgan sayohati tushuniladi, demak borish va qaytib kelishigacha bo‘lgan davrdir. Safar turli joylarni borib ko‘rishni anglatadi.

**Tashrif buyuruvchi** – ma’lum shartlarda, aynan mehnat ta’tilini, bo‘sh vaqtni maroqli o‘tkazish va hordiq olish, ish, davolanish, o‘qish yoki boshqa maqsadlarda sayohat qiluvchi shaxslar.

Tashrif buyuruvchi (ichki, kirish va chiqish) agar safar davomida tunash amalga oshirilsa **turist** (yoki tunovchi tashrif buyuruvchi) sifatida, boshqa hollarda **bir kunlik tashrif buyuruvchi (yoki ekskursant)** tarzida klassifikatsiya qilinadi. Bir kunlik tashrif buyuruvchi (ekskursant) – safar davomida tashrif buyuruvchilar (ichki, chiqish yoki kirish) tunashni amalga oshirsa turist, boshqa holatlarda bir kunlik tashrif buyuruvchi (ekskursant) deb hisoblanadi.

**Turistik oqim** – bu turistlarning ma’lum mamlakat yoki hududga doimiy tashrifidir. Turistik oqim hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga: uyushtirilgan yoki uyushtirilmagan sayohatni amalga oshirayotgan turistlarning umumiy soni; tur kunlari miqdori (tunashlar soni); turistlarning mamlakatga yoki hududga tashrifining o‘rtacha davomiyligi.

Har bir sayyoh boshqa mamlakat hududida ma’lum vaqt davomida bo‘lishi sababli, xalqaro turizmning umumiy hajmi mamlakatga xorijiy turistlarning tashrifi davomiyligi o‘rtachasidan bog‘liqdir. Shu sababdan, ichki va xalqaro turizmda turistlarning umumiy hisobi bilan bir qatorda sayyohlarning mamlakat hududida yashagan kunlari – turistik kunlar muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Amaliyotda, ko‘pgina mamlakatlar tomonidan ushbu ko‘rsatkich **“tunashlar soni”** deb qayd etiladi.

**Turistik xarajatlar** – turistik safarga otlanish va sayohat davomida sotib olingan iste’mol tovarlari va xizmatlar, shuningdek shaxsan foydalanish yoki boshqa shaxslarga yetkazish uchun sarflanadigan mablag‘. Ularga tashrif buyuruvchilarning o‘zlari to‘lagan, hamda boshqa shaxlar tomonidan to‘lanadigan yoki o‘rni qoplanadigan xarajatlar kiradi.

**Xarajatlarni amalga oshirish vaqti** – 2008-yilning Milliy hisoblar tizimi qoidalariga binoan, alohida shaxslarning so‘nggi iste’mol vaqtlari tovarlar yoki ko‘rsatiladigan xizmatlar haqiga to‘lovni amalga oshirgan vaqtda emas, ularga bo‘lgan egalik huquqlaridan foydalanish vaqtida hisobga olinadi. Xuddi shu qoidalar turistik xarajatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Iste’mol xarajatlari transportga aynan tashish xizmati amalga oshiriladigan paytda, joylatirishda

tunash xizmatidan foydalanilgan joyga yetib kelgan vaqtda, sayohatlar byurosi xizmatlariga esa – sayohatga tegishli axborot berilganda va bronlash xizmati taqdim etilgan fursatda hisobga olinadi.

Turistik sayohat davomida barcha tovar va xizmatlardan foydalanish, odatda, turistik xarajatlarning bir qismi sanaladi. Bundan tashqari, turistik xarajatlar safargacha bo‘lgan va anyan u bilan bog‘liq taqdim etiladigan barcha xizmatlarni (*masalan, emlash, passport xizmatlari, tibbiy nazorat, sayohatlar byurosi xizmatlari va boshqalar*) o‘ziga qamrab oladi. Safar davomida ishlatishga mo‘ljallangan (maxsus kiyim, dori-darmonlar va hokazo) sayohat oldi sotib olingan barcha mahsulotlar, yoki sovg‘a tariqasida olib keltirilgan tovarlar ham hisobga olinishi lozim.

**Xalqaro Turistik tashriflar (XTT)** miqdori – xalqaro turizm hajmini miqdoriy baholashda qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan o‘lchov birligidir. Unga, faqatgina, quyidagilar kiradi:

- Turistlar (tunovchi tashrif buyuruvchilar), ya’ni tashrif buyuruvchi mamlakatda jamoaviy yoki xususiy sectorning joylashtirish xizmatidan hech bo‘lmaganda bir kecha tunagan tashrif buyuruvchi. Bir kunlik (ekskursantlar) bunga kiritilmaydi.
- Tashriflar miqdori – odamlar soni emas. Ayni bir kishi muayyan vaqt davomida ma’lum mamlakatga bir necha marta safar uyushtirsa, har bir sayohat yangi tashrif deb hisobga olinadi, hamda, biror kishi bir safar davomida bir necha mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilsa, har bir sayohat yangi tashrif deb hisobga olinadi.

**Xalqaro Turistik Daromadlar** (XTD) – bu belgilangan mamlakatning kirish turizmidan oladigan tushumlari. XTD faoliyat doirasi:

- XTD turizmdagi tashrif buyuruvchilarning xorijga tashrifi bilan bog‘liq xarajatlardan olinadigan barcha daromadlarni o‘zida mujassamlashtiradi.
- Bir kecha hamda bir kunlik safardan olingan daromadlarni qamrab oladi.

- Boshqa mamlakatlar rezidentlari tomonidan yollanadigan (masalan, milliy kompaniya bilan sayohat qiluvchi xorijliklar biletlaridan olinadigan daromadlar) xalqaro tashuvlar bilan bog‘liq daromadlar hisobga olinmaydi.

Qo‘llanmadagi barcha ko‘rsatkich va atamalar ikki tilda, o‘zbek va rus tillarida ishlangan. Kirish, asosiy qism va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

“Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi” Buxoro viloyati mintaqaviy bo‘limi boshlig‘i M.SH.Maxmudov hamda Buxoro viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i Giyazov B.B. tomonlaridan baholanib, amaliyotga qo‘llashga tavsiya qilindi.

Dissertatsiyada onlayn vizalar joriy etilishi yuzasidan vizalarga ariza qabul qilinishining yagona darchasini yaratish taklifi kiritildi. Yagona darcha yordamida barcha axborotni bir joyga jamlash va ma’lumotlar uyg‘unligiga ega bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston turizm statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

- “ekskursiya” atamasiga ta’rif berilayotganda aynan “tunash amalga oshirmagan tashrif buyuruvchilar” degan band kiritilishi, hamda “24 soatdan kam bo‘lgan” qismi qo‘llanilmasligi;
- hudud bo‘ylab amalga oshiriladigan statistik kuzatuvlarda sayohatchilarni emas, aynan tashrif buyuruvchilar statistikasini olib borish;
- turistik daromadlar va xarajatlar hisobini yo‘lga qo‘yish;
- turizm statistikasini olib borishda “sayohatchilar” yoki “sayyohlar” lar o‘rniga “tashrif buyuruvchilar” atamasini qo‘llash;
- tashrif buyuruvchilar miqdorini aniqlashda kishining fuqaroligi emas, odatiy yashash muhitiga qarab hisobga olinishi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Statistika turizm sohasining ko‘pqirraligini hamda dinamikasini aks ettirgan o‘ziga xos oynadir. Uni to’g’ri tashkil etish barcha mamlakatlarning asosiy vazifasi bo’lib, to’g’ri olib borilgan kuzatuvlar mamlakatda soha rivojini ta’minlanishiga sabab bo’ladi.

**ANNOTATION**

**to Master's Dissertation work of Nigina Djafarova - student of 2nd-course-master student of Faculty of Tourism, 5A610301 -Tourism (International and Internal Tourism) of Bukhara State University on the theme of "The ways of touristic statistical data collection methodology conformed to international standards"**

Tourism statistics - one of the most important industrial branches of statistical science. It is developing a system of techniques and methods of collecting, processing and analysing numerical information describing the state and development of tourism.

Tourism statistics is also the area of practical activity of state statistics bodies and other organizations to collect and compile information on the phenomenon of digitations and processes in the field of tourism, primarily to assess the real contribution of tourism to the national economy. These tourism statistics provide systematic quantitative description of all the main aspects of tourist activity in the economy as a whole.

Accuracy of accounting for tourist flows and costs increases with a combination of the main methods of tourism statistics - the registration of arrivals at the border and in accommodation facilities, as well as the banking method - with specially organized observations.

The UNWTO singles out six tourist macro regions of the world:

1. European - the countries of Western, Northern, Southern, Central and Eastern Europe, including countries - former Soviet republics, as well as the states of the Eastern Mediterranean (Israel, Cyprus and Turkey).

2. American - the countries of North, South, Central America, island states and territories of the Caribbean.

3. Asia-Pacific - the countries of East and South-East Asia, Australia and Oceania.

4. African - African countries, except Egypt and Libya.

5. South-Asian - all countries of South Asia.

6. Middle East - countries of Western and South-West Asia, Egypt and Libya.

The working body of the Statistical Commission is the Statistical Division of the UN Secretariat. It collects data on world development as a global repository of economic, social, demographic, environmental information, accumulated by the entire UN system. Based on this information, the UN prepares reviews of the world economic and social situation. The Division has made dedicated efforts to develop statistical standards and rules for the collection and processing of international statistics, and it supports countries' efforts to strengthen their national statistical systems.

Currently, the UN Statistical Commission, together with the Statistics Division, organizes statistical work on a global scale. It unites the activities of statistical services in more than 230 countries and territories of the world, as well as about 2 thousand different international organizations.

In the statistics of tourist flows, information on the number of arrivals and length of stay is obtained mainly from the reporting of immigration or accommodation facilities.

Accounting at the border is conducted through immigration control when entering and leaving the country. It is carried out at checkpoints, airports, seaports, etc. The main sources of information about travellers are special registration forms - entry (exit) cards, as well as foreign passports and visas. They contain information about the age and field of the tourist, the country of his permanent residence (citizenship) and the country of destination, the purpose, the timing of the trip, etc. It is preferable to collect these data when visitors leave. On the way back, tourists can provide more accurate information than when they come from when they come from their intentions. Terms and route of travel are often adjusted during the train for different reasons (changing weather conditions, deteriorating health, additional information about new interesting sights, etc.).

Entry (exit) cards are the primary accounting document, in which various facts are registered. Data of primary accounting of entry (exit) of travellers is summarized in the reporting, i.e. An officially approved document that is signed by the persons responsible for providing and verifying the information collected.

The method of accounting at the border is used in many countries. Some of them have established close bilateral cooperation in the field of border statistics. For example, Canada collects information about its citizens returning from trips to the United States, and provides this information to the tourist administrations of the United States. In addition to the United States and Canada, border statistics of arrivals are conducted in the UK, Ireland, Cyprus, Australia, Singapore, Turkey, India, on the external borders of the European Union, etc. Since the forms of entry (exit) cards vary by country, UNWTO has developed a template that recommends the use of all its members.

In statistics, all errors are subdivided into intentional and Unintentional. The latter, in turn, are of an accidental or systematic nature. Accidental errors arise due to the fault of both the respondent and the registrars due to mispronunciation, reservations, ignorance, etc. They do not have such a serious impact on the results of observation, since such errors are equally encountered in the direction of understatement, and in the direction of exaggeration and large-scale observation, are neutralized.

Unintentional systematic errors occur mainly in surveys due to rounding of quantitative indicators (age of the visitor, his income, number of nights, etc.). It is noticed that during registration, the age is often rounded around numbers ending in 0 and 5, and it turns out, for example, that 40-year-old tourists on records are much larger than 39- and 41-year-olds. This phenomenon has received in the statistics the name of accumulation of ages. Such errors are corrected already when processing the collected statistical material.

More recently, confusion has occurred in tourist terminology and the classification of travellers. For example, such a key concept as a "tourist" was treated differently. The discrepancies related to the length of stay outside the

permanent residence (from 1-5 nights and more) and the age of travellers (from 14 years and older), as well as the purpose of the trip. Some discrepancies remain to this day. About 40% of countries do not include sightseers in the number of visitors, and 10% of countries exclude persons traveling with business purposes. In some cases, the registration of arrivals is carried out by the countries of permanent residence of visitors, in others - by citizenship. All this makes international comparisons difficult.

At present, no state conducts systematic observation of tourism in full. According to the WTO report, 18 countries (territories) of the world, in which 0.5% of the world's population live, did not provide any information about international tourism. Most of them are economically poorly developed and have an insignificant share in the world tourist market. 202 countries (territories) were included in the statistical yearbook. Although they collect information about the international tourist exchange, but on a very limited list of indicators. Even in France, in a country with a well-established statistical business, accounting is carried out with large gaps. In the statistics of tourist flows, information about excursion and short-term business trips is fragmentary; The statistics of tourist spending is also not exhaustive.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to ensure the accelerated development of the tourism industry of the Republic of Uzbekistan" on December 2, 2016, the following tasks were noted: ... further improvement of the legislation and regulatory framework in the field of tourism, ... "and" .. Improvement of the statistical accounting system in the sphere of tourism ". To fulfil these tasks, first of all, it is necessary to develop a single methodological framework that meets international standards, which will help to combine all the statistical information in one.

Researchs and observation of tourism statistics in Uzbekistan have eroded some errors and inconsistencies that do not meet international standards. To eliminate these problems, a methodical manual was developed, which consists of three chapters, and presents the following indicators:

**A traveller** is a person moving between different geographical locations for any purpose and for any period.

A trip means the journey of a person from the moment of departure from the place of his / her permanent residence until the moment of return: hence, it is a question of a trip there and back. The trip consists of visits to various places.

**A visitor** is a person who travels on certain conditions, namely for purposes of vacation, leisure and recreation, for treatment, study, business or for other purposes.

The visitor (internal, inbound or outbound) is classified as a tourist (or a night visitor) if his / her trip involves spending the night, or as a one-day visitor (or excursionist) - in other cases.

Tourist flow is the constant arrival of tourists to a country or a given region. The indicators characterizing the volume of the tourist flow include the total number of tourists, including organized and amateur; Number of tour days (number of overnight stays, bed-days); Average duration (average time) of tourists' stay in the country, region (in one place or village).

Since every foreign tourist is in a different country for a certain time, the volume of foreign tourism as a whole depends on the average length of stay of foreign tourists in the country. In this regard, inside and international tourism, along with the total number of tourists an important natural indicator is the number of days spent by tourists in the country - tourist days. In the practice of most countries, this indicator is called the "number of overnight stays."

**Tourist expenditure** are the amount spent to purchase consumer goods and services, as well as other valuables for own use or transfer to others in preparation for a tourist trip and in its course. They include expenses paid by the visitors themselves, as well as expenses paid or reimbursed by others.

Time of implementation of expenditures - According to the rules of the System of National Accounts of 2008, final consumption of households (individuals) is taken into account at the time of transfer of ownership of goods or provision of services, and not at the time of payment for them. The same rules

apply to tourist expenses. Consumption costs for transportation services are considered to be incurred at the time of transportation, at the time of stay at the place of accommodation, for accommodation services, and for travel agency services - at the time of providing information and booking travel services, etc.

The acquisition of all goods and services during the tourist trip is essentially a part of tourist expenses. In addition, travel expenses include all services provided prior to travel and clearly associated with it (for example, vaccination, passport services, medical supervision, travel agency services, etc.). All goods purchased before the trip, intended for use during the trip (special clothes, medicines, etc.) or goods brought as gifts should also be included.

The number of International Tourist Arrivals (ITA) is the most common unit of measurement used to quantify the volume of international tourism. Applies exclusively to:

• Tourists (night visitors), that is, a visitor who remains at least one night in the collective or private sector of the visited country. One-day visitors (excursionists) are not included.

• The number of arrivals is not the number of people. The same person who makes several trips to a given country for a certain period of time will be counted each time as a new arrival, as well as every time a person traveling in several countries on one trip is considered a new arrival.

International Tourist Income (ITI) is income received by the destination country from inbound tourism. Scope of ITI:

• ITI covers all tourism revenues as a result of costs associated with the arrival of visitors abroad.

• Includes income received for both one night and one-day trips.

• But does not include revenues related to international traffic, which are hired by residents of other countries (for example, incomes from tickets of foreigners traveling with a national company).

The given methodical instruction has been estimated by Head of Bukhara Regional Statistics Department under State Statistics Committee of the Republic

of Uzbekistan Giyazov B.B. and Head of The State Committee of the Republic of Uzbekistan for tourism development, Bukhara Territorial Department Mahmudov Sh.R. and recommended to implementation.

In the thesis, it was proposed to create a single window for obtaining online visas. And also, through a single window to keep records of visitors to the country.

For the improvement of the country's tourism statistics, the following were proposed:

- to describe the term "excursion" use the characteristic "who did not make the overnight stay", and also not use the point "less than 24 hours";

- keep statistics of visitors, not travellers;

- to keep in account such indicators as tourist income and tourist expenditure;

- to determine the number of visitors in the country of permanent residence, and not by citizenship.

In conclusion, we can say that tourism statistics This is a kind of mirror in which the sphere of tourism is reflected in all its multifacetedness. The main task for all countries is to correctly compile it and with its help to encourage other spheres.

# Mundarija:

**Kirish**_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 17

**I BOB. TURIZMDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI YIG'ISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Turizm statistikasi tushunchasi, uning predmeti, uslubiyoti va vazifalari_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 23

1.2. Turizm statistikasining asosiy konsepsiyasi, tavsiflanishi va klassifikatsiyasi_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _33

1.3. Turizmda statistik ma'lumotlarni yig'uvchi va tizimlashtiruvchi tashkilotlar _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 39

**I bob bo`yicha xulosa**_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 46

**II BOB. TURIZMDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASHNING XALQARO USLUBIYOTI**

2.1. Xalqaro turizm statistikasida turistik oqim, turistik daromad va xarajatlar hisobini yurgizish usullari_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 48

2.2. Xalqaro turizm statistikasida uchraydigan xatoliklar va ularni takomillashtirishning asosiy usullari_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _58

**II bob bo`yicha xulosa**_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _68

**III BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM STATISTIKASINI SHAKLLANTIRISHNI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH**

3.1. O'zbekiston turizm statistikasi tizimida islohotlarni amalga oshirish _ _ _ 69

3.2. Statistik ma’lumotlarni yig’ishning vizalarga asoslangan tizimini shakllantirish yo’llari_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _76
3.3. O’zbekiston turizm statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish yo’llari_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 82
**III bob bo`yicha xulosa**_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _89
**XULOSA VA TAKLIFLAR** _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _91
**ADABIYOTLAR RO’YXATI**_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 94
**ILOVA** _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _106

## Kirish

BTT Bosh kotibi Taleb Rifai mamlakatimiz poytaxti Toshkentga tashrifi davomida quyidagi firklarni bildirgan: “Aminmanki, turistik mahsulotga talab va taklif hajmini belgilovchi ko‘rsatkichlar va aniq ma’lumotlardagi nomuvofiqliklar, samarali turistik strategiyani ishlab chiqish yo‘lidagi eng asosiy to‘siq hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarni nafaqat yig‘ish, balki to‘g‘ri tahlil qilishni ta’minlash ham yuqori ahamiyatga molikdir.”

Turizm statistikasi mamlakat turizm sohasining tendensiyalarini, uning qay darajada rivojlanib borayotganligini tasdiqlab berishdagi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Yurtimizning turizm statistikasini takomillashtirish, uni tartibga solish va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida 2012-yil 18-yanvar “Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom” hamda 1999-yil 20-avgust kuni “*Turizm* to‘g‘risida”gi *qonun* qabul qilingan.

**Ishning dolzarbligi.** “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-dekabr 2016-yildagi farmoni 1-bo‘lim 2-bandida ko‘rsatilganidek**:** “...turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish”, hamda “...turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish” kabi maqsadlar belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ushbu magistrlik dissertatsiyasi ayni shu vazifalarni nazariy va amaliy takliflar yordamida amalga oshirishga bag‘ishlangan.

Turizm statistikasini to‘g‘ri olib borishdagi asosiy talab, yig‘ilayotgan ma’lumotlarning yagona ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lishidir. Bunday axborotlarni o‘zaro taqqoslash, mamlakat yoki jahon miqyosidagi umumiy ko`rsatkichlarni chiqarish hamda ular yordamida turistik prognozlarni amalga oshira olish imkoniyati vujudga keladi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti** – O‘zbekiston turizm statistikasi tizimi faoliyati natijasida aniqlanadigan mamlakat turizm sohasidagi real holat va tendensiyalar, turistik hudud sifatida raqobatbardoshlik hamda

investitsion jozibadorlik bo‘lsa, **predmeti** mamlakat turizm statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlaridir.

**Ishning maqsadi** - O‘zbekiston turizm statistikasi tizimini tadqiq etish, Xalqaro turistik tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan va amalda qo‘llaniladigan xalqaro statistik standartlarga moslashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqgan holda, quyidagi asosiy vazifalar belgilab qo‘yildi:

- Turizm statistikasi tushunchasi, uning predmeti, uslubiyoti va vazifalarini chuqur o‘rganish;
- Turizm statistikasining asosiy konsepsiyasi, tavsiflanishi va klassifikatsiyalarini aniqlash;
- Turizmda statistik ma’lumotlarni yig‘uvchi va tizimlashtiruvchi tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish;
- Xalqaro turizm statistikasida turistik oqim, turistik daromad va xarajatlar hisobini yurgizish usullarini o‘rganish;
- Xalqaro turizm statistikasida uchraydigan xatoliklar va ularni takomillashtirishning asosiy usullarini aniqlash;
- O‘zbekiston statistika tizimida qo‘llaniladigan tushuncha va ko‘rsatkichlarni qo‘llashda xalqaro standartlardan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Statistik ma’lumotlarni yig‘ishning vizalarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy va nazariy takliflarni ishlab chiqish;
- O‘zbekiston turizm statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llari bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

**Ishning yangiligi.** O‘zbekistonning turizm statististikasini olib borish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha Butunjahon Turistik Tashkiloti tavsiyasiga asoslangan metodik qo‘llanma ishlab chiqilgan.

Qo‘llanmani tayyorlashda asosiy e’tiborni aynan hozirgi kunda O‘zbekiston turizm statistikasi holati tahlilidan olingan xulosalar natijasida

muammoli va takomillashtirilishi kerak deb hisoblangan tushunchalar va ko‘rsatkichlar to‘plamini o‘zida mujassamlashtirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabr “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga belgilangan 2021-yildan boshlab onlayn vizalar tizimiga o‘tilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, hamda ushbu mexanizm yordamida tashrif buyuruvchilarning miqdorini aniqlashda foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turizm, xalqaro turizm va turizm statistitikasiga doir adabiyotlarda yordamida turizm statistikasining olib borilish tartibi, ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlah va ishlov berilish tartibi, statistikada yuzaga keladigan xatoliklarni oldini olish va boshqa muammolar o‘rganildi. MDH mamlakatlari olimlaridan Aleksandrova A., Pertov A., Gelman V., Birjakov M., Maruxnova P., Nazarov M., Pardaev A., Norchaev A., Morozov M., Oktyabrinskiy P., Okladnikova Y. va boshqa olimlarning tahlillari, darsliklari va asarlarining nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston sharoitida turizm statistikasini takomillashtirish masalalari bo’yicha Alimova M., Quvvatov A., Tuxliyev N., turizm marketingi va hududiy marketing bo’yicha Navruz-zoda B.N.. raqobatbardoshlik hamda menejment bo’yicha Ibragimov N. va boshqa bir qator turizm sohasi mutaxassis olimlarining ilmiy ishlarida aks ettirilgan.

BTT tomonidan ishlab chiliqilib, foydalanishga tavsiya etilgan “Turizmning yordamchi hisobi, 2008” hamda “Turizm statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar, 2008” ning barcha jabhalari, belgilangan ta’riflari o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar hamda mamlakatimizda turizm va uning statistikasiga doir qonun va qarorlar bilan solishtirildi. Taqqoslash natijasida yuzaga kelgan nomutanosiblikni oldini olish uchun takliflar kiritirilib, ularni amalda tadbiq etilganligi jahon mamlakatlari misolida ko‘rsatildi.

**Ilmiy ishning amaliy ahamiyati.** Taqdidot natijasida “Xalqaro turizm statistikasida qo‘llaniladigan tushuncha va ma’lumotlar bo‘yicha metodik qo‘llanma” ishlab chiqilgan. BTT tomonidan turizm statistikasini olib borishda qo‘llash tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar va tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Bu metodik qo‘llanma Davlat Statistika qo‘mitasi, Buxoro viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i B. B Giyazov hamda O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i SH. R Mahmudovlar tomonidan ijobiy baholanib, statistik hisobotlarni yig‘ish va tahlil qilish maqsadida amaliyotga joriy etish tavsiya qilindi (taqrizlar ilovada ko‘rsatilgan).

Taqdim etilayotgan metodik qo‘llanmaning amaliy ahamiyati shundaki, undan foydalanib, mamlakatimizning turizm statistikasi hozirgi kundagi holati tahlilidan aniqlangan kamchiliklar va xatoliklarni tuzatish va qo‘shimchalar kiritib, barcha ko‘rsatkich va tushunchalarni xalqaro talablarga moslashtirish imkoniyatini tug`diradi.

Metodik qo‘llanma 3 bo‘limdan iborat bo`lib, taqdim etilayotgan ma’lumotlarni to‘g‘ri taqsimlashga ko‘maklashadi. Avvalo, tashrif buyuruvchilarni boshqa sayohatchilardan ajratishda muhim bo‘lgan jihatlar yoritib berilgan. Ikkinchi bobda asosiy e’tibor turistik oqimni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, uni aniqlash formulalari ochib berilgan hamda turistik kunlarning jihatlari ko‘rsatilgan. Uchinchi bobda mamlakatimiz turizm statistikasini yurgizishda turistik daromadlar va xarajatlar hisobini olib borish, ularni tartibga solishdagi asosiy talablar o‘z aksini topgan.

Barcha axborotlar, ko‘rsatkich, atama va formulalar rus va o‘zbek tillarida keltirilgan.

Mamlakatimizga turistik oqimni ko‘paytirish maqsadida 2021-yildan boshlab O‘zbekistonda onlayn vizalar tizimi joriy etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ilmiy ishda xorijiy davlatlar tajribasi tahlili asosida ushbu saytni yaratilishida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar keltirilgan, hamda yagona

darcha yaratish taklifi berilgan. Bundan tashqari, portal orqali viza olish maqsadida ariza topshirgan potensial turistlar va talabnomalariga ijobiy javob olganlar hisobini olib borish yordamida davlatimiz turizm statistikasiga tashrif buyuruvchilar to‘g‘risidagi ishonchi axborot manbani ta’minlash imkoniyati mavjuddir. Shularni inobatga olgan holda, yaratiladigan yagona darchada hisoblagich o‘rnatilishi taklif etildi.

**Tadqiqot metodlari.** O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonun va qarorlari, normativ-huquqiy qonun-qoidalar, BTT tomonidan ishlab chiqilgan va amalda qo‘llashga taqdim etilgan “Turizmning yordamchi hisobi (2008)” hamda “Turizm statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar, 2008” kabi hujjatlarga tayangan holda dunyo mamlakatlari turizm statistikasi tajribasi tahlil etilib, ular asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Dissertatsiya ishi bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlar:** Ilmiy tadqiqot mavzusi doirasidan 1 ta ilmiy - amaliy konferensiya maqolalar to‘plamida, 1 ta ilmiy - nazariy va metodik jurnalda, 2 ta Buxoro Davlat Universitetining magistirlar maqolalari to‘plamida, hamda 1 ta OAK ro`yxatiga kiritilgan ilmiy elektron jurnalda maqolalar e’lon qilingan.

**Dissertatsiya hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, 5 ta chizma, 9 ta jadval, 12 ta rasm, 1ta ekoturistik loyiha va 1 ta metodik qo‘llanma iborat. Dissertatsiya ilova va annotatsiyadan tashqari- 90 betdan iborat.

**Dissertatsiya tarkibi.** Dissertatsiya ishi umumiy hajmi jihatidan kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilova kabilardan tarkib topgan.

***Dissertatsiyaning kirish qismida*** mavzuning dolzarbligi, uning o‘rganilganlik darajasi, ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi, nazariy, metodologik va uslubiy asoslari, predmeti, obyekti, ilmiy yangiligi, dissertatsiya ishi bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlar natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi hamda dissertatsiyaning aprobatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi *“Turizmda statistik ma’lumotlarni yig‘ishning nazariy asoslari”* deb nomlangan bo‘lib, uchta rejaga ajratilgan. Unda, avvalo, statistika so‘zining mazmuni, predmeti, tarkibi, tadqiqot usullari va vazifalari, turizm statistikasining vujudga kelish tarixi va klassifikatsiyalari, turizm statistikasining konsepsiyalari yoritilgan. Turizm statistikasini xalqaro darajada tartibga soluvchi qonun va hujjatlar tahlil etilib, ushbu faoliyatni olib boruvchi tashkilotlar to‘g‘risiga axborot keltirilgan.

*“Turizmda statistik ma'lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashning xalqaro uslubiyoti”* nomli ikkinchi bobda turizm statistikasining ajralmas bo‘laklari sanalmish turistik oqim, daromad va xarajatlarning nazariy asoslari bayon etilgan. Turizm statistikasi murakkab va ko‘pqirrali bo‘lganligi uchun uning hisobini olib borishda ko‘pgina xatoliklar va kamchiliklar mavjuddir. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish orqali ishonchli va mukammal statistik axborotga erishish mumkin bo‘lib, ikkinchi bobda ayni shu masalalar yechimi o‘rin olgan.

Uchinchi bob *“O‘zbekistonda turizm statistikasini shakllantirishni xalqaro standartlarga moslashtirish”* mavzusiga bag‘ishlangan. Unda asosiy e’tibor hozirgi kundagi mamlakatimiz turizm statistikasi holati tahlilidan olingan xulosalar, uni takomillashtirish va xalqaro talablarga moslashtirish kabi maqsadlarga qaratilgan. Mamlakatimiz turizm statistikasini mavjud standartlarga moslashtirish, undagi hisob usullarini mukammallashtirish bo‘yicha firklar bildirish hamda turizm statistikasini tartibga solishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan yagona ko‘rsatkichlarga asoslangan metodik qo‘llanmani ishlab chiqish yoritilgan.

*Dissertatsiyaning xulosa qismida* tadqiqotlar natijasida olingan xulosa va takliflar berilgan.

*Ilovalar qismi* ilmiy maqola va tezislardan tashkil topgan.

## I bob. Turizmda statistik ma’lumotlarni yig‘ishning nazariy asoslari

### 1.1. Statistikaning yuzaga kelishi, usullari va ularning umumiy ta’rifi

Statistika – ijtimoiy hayotda, amaliyotda va ilmiy faoliyatda har xil ma’noda ishlatiladigan, qo‘llaniladigan atamadir.

«Statistika» aslida «Status» degan lotin so‘zidan kelib chiqqan. Italyancha so‘zda stato (stato) davlat, statista (statusta) davlat bilimdoni degan ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun statistika davlat to‘g‘risida bilim va ma’lumotlarni to‘plash orqali mujassamlab ifodalaydigan soha, ushbu soha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi odamlarni davlat bilimdonlari deyilgan. Demak, statistika davlat ijtimoiy hayotida sodir bo‘ladigan hodisalar va voqealarni ifodalagan. Hozirgi paytda ham statistika fani shu sohalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi, lekin statistikaga hozirgi davrda quyidagi uch yo‘nalish bo‘yicha ta’rif berilmoqda.

Ilk bor statistikaning vujudga kelishi amaliy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Qadim zamonlardayoq qurolli kuchlarga layoqatli kishilar sonini bilish, soliqqa tortish obyektlarini belgilash zarurati tug‘ilgan. Bu esa davlatni aholi soni va tarkibida bo‘layotgan o‘zgarishlar ustidan kuzatishlar olib borishga undagan. Qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, sanoat va boshqa sohalar hamda iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi ho‘jalikka oid hodisa va amallar ustidan muntazam ravishda kuzatish olib borishni taqozo etgan. Natijada baholar va savdo-sotiq statistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimoti statistikasi va boshqa iqtisodiy statistika tarmoqlari vujudga kelgan va rivoj topgan.

Bozor munosabatlari va aholi tabaqalari  orasida o‘zaro aloqalar kengayishi bilan birga davlatni iqtisodiyotga aralashuvi obyektiv zaruriyat bo‘lib qoladi. Bu esa, o‘z navbatida, yangidan-yangi ma’lumotlar to‘plash, iqtisodiy hayotning hamma muhim tomonlarini qamrab olgan iqtisodiy axborot yaratish ehtiyojini tug‘diradi. Shu bilan birga davlatlar orasida xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, butun jahon xo‘jaligining shakllanishi va taraqqiy etishi ayrim milliy iqtisodiyot va butun jahon xo‘jaligi miqyosida tovar va xizmatlar hamda daromadlarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarini har taraflama tasvirlaydigan batafsil hisob-kitob yuritishni talab qiladi. Hozirgi kunda bu masala

ayrim milliy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Natijada milliy hisobchilik shakllandi va rivoj topmoqda.

Ma'lumotlarda ifodalangan tartib-qoidalarni anglash ishtiyoqi, tushuntirish yo'llarini topish zaruriyati statistikani fan sohasiga aylantirdi. Ammo, ilk bor statistika davlatni boshqarish muhim quroli sifatida shakllangan va rivojlanib borgan bo'lsa ham, shu bilan bir vaqtda ko'pdan ko'p voqealarni, faktlarni miqdoriy jihatdan hisobga olish va ma'lum darajada tartibga solish natijasida ilmiy jihatdan juda qiziqarli materiallar ham jamg'arildi. Bu ishning dastlabki onlaridayoq sezgir kuzatuvchi tarqoq butunlay tasodifiy tuyulgan o'g'il yoki qiz bola tug'ilish soni, nikohlanish, yoki u yo bu yoshda o'lish soni va shularga o'xshash hodisalarda ma'lum tartib - qoidalar borligini payqab hayratda qoldi. Natijada buning sabablarini anglash ishtiyoqi kishida uyg'onib, ularni tushuntirish yo'llarini izlab topish ehtiyoji tug'ildi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun statistika xizmat qila boshlashi bilan birga ilm-fan sohasiga aylandi.

Amaliy faoliyatda to'plangan tajribalarni umumlashtirish yo'li bilan dastlab davlatni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va talqin etish qoidalari, tartiblari, yo'llari, usullari yaratildi. Statistika ana shunday fan sifatida qaralib yangi izlanishlar asosida boyib bordi. Uning mohiyati va usullarini takomillashtirishda matematika usullari, qurollari va yangi nazariyalaridan foydalanish juda qo'l keldi, chunki statistika ham matematikaga o'xshab sonlar, miqdorlar bilan shug'ullanadi, ammo shunday toifalari bilan-ki, ular sifatga ega bo'lib, ommaviy hodisalarni o'lchash natijasida hosil bo'ladi.

Pirovard oqibatda statistik tafakkur uslubi, ya'ni statistika nazariyasi va uslubiyati (metodologiyasi) shakllandi. Endi bu uslub nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy voqealarni o'rganishda, balki boshqa sohalarni ham birin - ketin egallay boshladi. Hozirgi vaqtda u deyarlik barcha fan va texnika sohalarida, tajriba-eksperimentlarda, fizika, kimyo, biologiya, arxeologiya, agronomiya, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, tilshunoslik, harbiy ishlar va hatto tasviriy san'atda hamda musiqa bastalashda qo'llanilmoqda. Shunday qilib, Statistika yuzaki qarashda oddiy so'z bo'lsa ham, lekin ko'p qirrali mazmunga ega.

Statistika lotincha “status” - ahvol, holat so‘zi bilan italyancha “stato” - davlat so‘zidan kelib chiqib, davlat ahvoli haqidagi fan. Etimologiya, ya’ni so‘zlarni kelib chiqishi jihatidan bu atama bevosita qandaydir bitta klassik - grekcha yoki lotincha ildizga ega emas. U lotincha “status”, ya’ni ahvol, holat degan so‘zning italyancha “state” - davlat degan so‘z qiyofasini olishidan kelib chiqadi. Statistika so‘zi kundalik hayotga va ilm-fanga XVIII asrda kirib keldi. Dastlab, savdo va moliya kapitali hamda pul munosabatlari taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ehtiyojni qondirish maqsadida to‘plangan mamlakat aholisi, iqtisodiy va siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar statistik axborotlar deb yuritiladi.

Dastlab davlatshunoslik fani statistika deb ataldi. Biroz keyinroq davlatning diqqatga sazovor tomonlarini tasvirlaydigan davlatshunoslik fani paydo bo‘lib, u statistika nomi bilan, uni yaxshi egallagan bilimdon esa statistik deb atala boshlandi. Bu fanning ko‘zga ko‘rinarli namoyondasi nemis G. Axenval (1719-1772-yillar) birinchi bo‘lib statistika so‘zini ot sifatida qo‘lladi va ilmiy odatga kiritdi. Uning fikricha, statistika bu davlat uchun alohida ahamiyat kasb etadigan masalalar sharhi, tasviridir. Ammo hozirgi kunda statistika atamasini bunday mazmunda talqin etish ko‘p jihatlarini yo‘qotdi. Kundalik turmushimizda mamlakat iqtsodiyoti va aholisi haqidagi ma’lumotlar to‘plami statistika deb yuritilsa ham, ammo u o‘tgan asrlardagi “davlatshunoslik” dan tubdan farq qiladi.

Hozirgi zamon statistikasi davlatshunoslikdan axborotlarning to‘laligi, turli-tumanligi va xarakteri bilan tubdan farq qiladi. Bu farq nafaqat axborot turlari ko‘pligi va to‘laligida ko‘zga tashlanib qolmasdan, shu bilan birga ularning xarakterida ham yaqqol kuzatiladi. Endi statistika deganda faqat miqdoriy ifodalangan axborotlar tushuniladi. Masalan, muayyan davlatda qanday siyosiy tizim hukmronligi, qaysi til davlat tili ekanligi statistikaga hech qanday aloqasi yo‘q, ammo siyosiy partiyalar soni, ularning maqsadi, a’zolar soni va boshqa belgilar bo‘yicha taqsimlanishi, yetakchi partiya tashkilotlari a’zolarining ijtimoiy holati, yoshi, jinsi va boshqa belgilari bo‘yicha taqsimoti, qaysi tilda qancha aholi gaplashishi va hokazolar - bular statistikadir. Mamlakat hududiy bo‘linmalarining ro‘yxati yoki jo‘g‘rofiy xaritada joylanishi statistika emas, biroq aholi soni, sanoat

tarmoqlari va hokazolarning hududiy kesimda taqsimoti statistikadir.

Statistikaga oid ma'lumotlar uchun umumiy o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, ular ayrim yakka hodisalarga tegishli bo'lmasdan, balki doimo ularning to'plamini qamrab oluvchi umumlashtiruvchi miqdorlardir. Yakka hodisa, to'plamdan farqli o'laroq, mustaqil va bir - biriga o'xshash tarkibiy elementlarga bo'linmaydi. To'plam bitta yoki bir nechta hodisaga kamayishi bilan butunlay yo'q bo'lmasdan, oldingi mavqeini saqlab qoladi. Masalan, agarda shahar aholisi orasida bir yoki bir nechta kishi vafot etsa yoki boshqa joyga ko'chib ketsa, aholi to'plamligicha qolaveradi.

Qandaydir korxona yopilsa korxonalar to'plami o'z nomini saqlab qoladi. Ammo yakka korxonaga qarashli asosiy sex yopilsa, korxona o'z mavqeini yo'qotadi, ya'ni ishlamay qo'yadi. Shuningdek, shaharga bir kishi ko'chib kelishi yoki bola tug'ilishi, yangi korxona ishga tushishi bilan mavjud to'plam o'rniga yangisi yoki ikkinchi boshqa to'plam paydo bo'lmaydi.

Agarda hodisa yakkayu yagona bo'lib, keyinchalik unga o'xshash hodisa yuzaga chiqishi kutilsa, u holda bu hodisa mustaqil statistika obyektini tashkil etadi. Masalan, Asakadagi yengil mashinalar ishlab chiqaruvchi o'zbek-koreya qo'shma korxona ishga tushishi bilan respublika xo'jaligida yangi tarmoq shakllanishiga asos solindi. Demak, bu korxona statistika, obyekti hisoblanadi, chunki keyinchalik unga o'xshash mashinasozlik korxonalari vujudga kelishi mumkin, haqiqatda ham paydo bo'la boshladi.

To'plam tarkibidagi har bir hodisa o'z o'zidan statistikani qiziqtirmaydi. U to'plam bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarni olish uchun asos sifatida statistika diqqatini tortadi. Masalan, nikohni qayd qilish oila quruvchi ikki yosh uchun ahamiyat kasb etadi, chunki ularning oilaviy huquq va vazifalarini belgilaydi, shu jihatdan davlat tashkilotlarini ham qiziqtiradi, chunonchi ular huquqiy oila munosabatlari ustidan nazorat olib borish uchun tuzilgan. Bu fakt statistika uchun qayd qilingan nikohlar soni, yangi oilalar a'zolarining yoshi, yashash manbalari va hokazolar haqidagi umumiy ko'rsatkichlarni olish jihatidangina ahamiyatga ega. Garchi faktlar o'zi haqida ma'lumot berolmasada, ularni tushunib to'g'ri talqin eta

bilish lozim. Statistikaga ana shunday yo‘sinda yondashish natijasida bu so‘zning ma’nosi boyidi, u mazmunan yangi jihatga ega bo‘ldi.

Statistika - bu fan tarmog‘i, amaliy faoliyat sohasi, bilim yo‘nalishi, bilish quroli. Statistika deganda ma’lumotlar to‘plash jarayoni ham ularni qayta ishlab, xolisona va aniq talqin etish qoidalari ham tushuniladi. Ana shu mazmunda statistika ham fan, ham faoliyat sohasi, ham kasb turidir. U uyushtirilgan bilim tarmog‘i ham, maqsadlarni amalga oshirish uchun kuchli qurol ham, kasbkorlik faoliyati sohasi ham hisoblanadi. Ko‘zga ko‘ringan iqtisodchi olim **E.Keyn** shohidlik qilishicha, ma’muriy muassasalarda ishlarni tasniflashga oid amerika ma’lumotnomasida statistika quyidagicha ta’riflanadi: “Statistika faktlarni xulosalar yasash uchun asos sifatida to‘plash, tasniflash va miqdoriy baholash haqidagi fandir” Shu jihatdan u tasviriy statistika nomi bilan ham yuritiladi.

Tasviriy statistika - bu ma’lumotlar to‘plash, tasniflash, umumlashtirish va talqin etish yo‘llaridir. Demak, tasviriy statistika deganda axborotlar to‘plash, tasniflash, umumlashtirish va talqin etish yo‘llari nazarda tutiladi. Uning diqqat markazida ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirish turadi. Tasviriy statistika ma’lumotlarni samarali to‘plash, tartibga solish va umumlashtirilgan statistik axborotlar olish usullarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash bilan shug‘ullanadi. Bu ishda informatsion texnologiyalardan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodchi mutaxasislar, statistiklar information texnologiyalardan yordamida axborotlar to‘plash, ishlash va saqlash qoidalarini chuqur bilishlari lozim.

Shunday qilib, statistika atamasi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, hozirgi kunda u quyidagi mazmunlarda ishlatiladi:

- ❖ statistika deganda turmushimizning turli tomonlari - iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ma’naviy, sotsial-psixologik, ijtimoiy-demografik va hokazo hodisalar hamda atrof-muhit holati haqidagi ma’lumotlar majmuasi tushuniladi. Bunday mazmunda bu so‘z ko‘proq davriy matbuot sahifalarida va axborot vositalarida ishlatiladi;
- ❖ ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayoni ham statistika deb

yuritiladi;

- statistik ko‘rsatkichlarni hisoblaydigan va saqlaydigan, axborot xizmatlarini ko‘rsatadigan maxsus tashkilotlar nazarda tutilganda ham statistika so‘zi foydalaniladi;
- yirik korxona va idoralarda xo‘jalik faoliyat haqidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash va hisobotlar tuzish bilan shug‘ullanadigan bo‘lim nomi ham statistika deb yuritiladi;
- statistika deb maxsus ilm-fan yo‘nalishi ham ataladi;
- statistika deganda turli ilmiy-texnika sohalarida gipotezalar yasash, baholash va yechimlar qabul qilish jarayonida statistik uslubiyatni tatbiq qilish ham tushuniladi;
- matematikada turli mezonlar va umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar statistika deb yuritiladi.

Statistika deganda, birinchidan, amaliy faoliyat sohasi tushuniladi, ya’ni ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi ommaviy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va chop etish jarayonlari bilan shug‘ullanuvchi amaliy faoliyat tushuniladi. Bu tushuncha amaliyotda statistik uchot deb ham yuritiladi.

Statistika, ikkinchidan, bilim sohasini anglatuvchi mustaqil fan, ya’ni bunda o‘z predmeti va usullariga ega bo‘lgan mustaqil fan to‘g‘risida so‘z boradi. Statistika deganda, uchinchidan, hayotning turli tomonlarini ifodalovchi, ta’riflovchi umumiy ko‘rsatkichlar, statistik raqamlar to‘plami, yig‘indisi tushuniladi. «Statistika» fani ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tarkibiga kiradi. U o‘zining maxsus predmeti va obyektiga ega.

«Statistika» fani hayotda sodir bo‘ladigan ijtimoiy voqealar va hodisalarni o‘rganadi. Boshqacha aytganda, mamlakat, viloyat, tuman va xo‘jaliklarda sodir bo‘ladigan ijtimoiy hodisalarni o‘rganadi. Ijtimoiy hodisalar deganda qanday hodisalarni tushunmoq kerak? Ijtimoiy hodisalar deganda iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, tabiiy hodisalar tushuniladi.

Iqtisodiy hodisa deganda, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar tushuniladi. Bunda birinchi navbatda moddiy-ne’mat ishlab chiqarish

hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar tushuniladi. Paxta, sabzavot, g‘alla kabi ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori va ularning o‘zgarishi hamda ushbu mahsulotlar bilan bog‘liq bo‘lgan tannarx, mehnat unumdorligi, mehnat sarfi kabi statistik ko‘rsatkichlar iqtisodiy hodisalar hisoblanadi.

Madaniy hodisalar deganda madaniy va ta’lim tarbiya sohasida sodir bo‘ladigan hodisalar tushuniladi. Madaniy va ma’rifiy muassasalarning, o‘quv yurtlarining, maktab, bog‘cha, kutubxona va hokazolarning ahvolini, holatini ham statistika o‘rganadi. Bunday hodisalar madaniy hodisalar hisoblanadi.

Siyosiy hodisalar deganda, siyosiy va mafkuraviy jabhalarda sodir bo‘ladigan ommaviy hodisalar tushuniladi. Sessiyalar va saylovlar natijalari, ulardagi qatnashganlarning soni, ovozlarning taqsimlanishi kabilar siyosiy hodisalarga misol bo‘la oladi. Tabiiy hodisalar ham ijtimoiy hodisalar tarkibiga kiradi. Tabiiy ofatlar, ya’ni zilzila, suv toshqini, do‘l yog‘ish, yong‘in kabi hodisalar tabiiy hodisalar hisoblanadi.

Shunday qilib, statistika fani makon va zamonda sodir bo‘ladigan ommaviy ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini sifat tomonlari bilan chambarchas bog‘lagan holda o‘rganadi. Demak, statistika fanining predmeti ommaviy ijtimoiy hodisalar hisoblanadi. Iqtisodiyotda sodir bo‘ladigan ijtimoiy hodisalarni o‘rganish ikki xil, ya’ni mikro va makro yondashuv orqali amalga oshirilmoqda.

Makroiqtisodiy statistika fani makroiqtisodiyotni, mikroiqtisodiy statistika fani esa mikroiqtisodiyotni o‘rganadi. Mamlakat va uning alohida regionlari iqtisodiyotida sodir bo‘ladigan ommaviy jarayonlarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat tomonlari bilan uzviy bog‘liqda o‘rganuvchi fan **makroiqtisodiy statistika** deb ataladi. Masalan, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining o‘zgarishini ijtimoiy mehnat unumdorligining yoki boshqa sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi bilan bog‘lab o‘rganish, xulosa qilish shular jumlasidandir.

Firma va korxonalar iqtisodiyotida sodir bo‘ladigan jarayonlarning miqdoriy jihatlarini ularning sifat jihatlari bilan uzviy bog‘lagan holda o‘rganuvchi fan **mikroiqtisodiy statistika** deb ataladi. Masalan, shirkat xo‘jaligida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmining o‘sishini mehnat unumdorligi, mehnat sarfi, tannarxi kabi

ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganib, xulosa qilish mikroiqtisodiy statistikaning vazifasidir.

Statistika fanining obyekti ommaviy ijtimoiy hodisa va voqealar sodir bo‘ladigan makon va to‘plam hisoblanadi. Makon deganda mamlakat, viloyat, tuman, korxona va tashkilotlar (shu jumladan shirkat va fermer xo‘jaliklari) kabi birliklar tushuniladi.

**Statistik to‘plam** deganda ma’lum bog‘lanishda bir xil sifat xususiyatlarga ega bo‘lgan birliklar yig‘indisi tushuniladi. Bunga yo‘nalishi bir xil bo‘lgan shirkat xo‘jaliklari to‘plami misol bo‘la oladi. Statistik to‘plamdan, statistik yoki statistik ko‘rsatkichlar tizimini farq qilmoq kerak. **Statistik ko‘rsatkich** deb u yoki bu hodisani raqamlar yordamida ifodalovchi miqdorlarga aytiladi.

*Ko‘rsatkichlar tizimi* deb o‘zaro bog‘liq hodisa va jarayonlarni bir butunligicha umumlashtirib, tavsiflovchi yaxlit tizimga aytiladi. Aholi, milliy boylik, yalpi ichki mahsulot kabi qator ko‘rsatkichlar tizimiga misol bo‘la oladi.

Statistika fani mustaqil fan sifatida o‘zining predmeti bilan bir qatorda maxsus usuliga ham ega. Tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy hodisalarni bilish, tadqiq etish va borliqni o‘rganishga yondashish usuli statistikaning uslubi (metodi) deb ataladi. Hamma fanlar, shu jumladan, statistika fani uchun ham umumiy uslub dialektik uslub hisoblanadi.

Dialektik uslubning mohiyati shundan iboratki, u tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy hodisalarni o‘zaro bog‘lanishda, rivojlanishda, taraqqiyotda deb bilishni taqozo etadi. Ushbu hodisalar bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, o‘zaro ta’sir kuchida bo‘ladi, natijada o‘zgarish sodir bo‘ladi. Ushbu harakat tinimsiz davom etadi. Masalan, odam tabiat bilan moddiy ne’matlar ishlab chiqarish orqali bog‘langan. Bu bog‘lanish negizida inson mehnati yotadi. Mehnat jarayonida insonlarning o‘zaro ishlab chiqarish munosabatlari yuzaga keladi, oqibatda shu munosabatlar asosida insonlarning turli xil aloqalari vujudga keladi, ya’ni siyosiy, huquqiy, mafkuraviy va boshqa aloqalari ham vujudga keladi. Shuning uchun o‘rganilayotgan hodisalarni kuzatayotganda ulardagi tomonlarni alohidalikda, bir-biridan ajralgan holda emas, balki ularning barcha tomonlarini

birgalikda, o‘zaro bog‘lanishda deb o‘rganishi zarur. Shunday qilinganda ijtimoiy hodisalar holati va harakati hamda o‘zgarishiga to‘g‘ri baho beriladi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoni tug‘iladi.

Statistika dialektik uslubning qoidalariga suyangan holda o‘z predmetini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan maxsus xususiy usullarini ishlab chiqqan. Bunday usullar qatoriga, ommaviy statistik kuzatish, kuzatish ma’lumotlarini jamlash va guruhlash, turli-tuman umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblash, statistik ma’lumotlarni jadval, grafiklarda rasmiylashtirish kabilar kiradi.

Statistika predmetini o‘rganishda, qo‘llaniladigan har xil usullar to‘plami statistika fanining **uslubiyati (metodologiyasi)** deb ataladi. Statistik tadqiqot ushbu usullarning chambarchas o‘zaro bog‘lanishi asosida olib boriladi.

Statistik tadqiqot 3 bosqichni o‘z ichiga oladi. Statistik tadqiqotning ilk bosqichi statistik kuzatish hisoblanadi. *Statistik kuzatish* deb oldindan ilmiy asosda tuzilgan dastur bo‘yicha ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va ularni qayd qilish jarayoni tushuniladi.

Statistik tadqiqotning ikkinchi bosqichi statistik kuzatish ma’lumotlarini jamlash va guruhlash hisoblanadi. Bu bosqichda statistik kuzatish yordamida olingan ma’lumotlar bir tizimga solinadi, qayta ishlanadi, tekshiriladi va guruhlarga bo‘linadi.

Kuzatilayotgan hodisani har tomonlama tavsiflovchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblash va ularni iqtisodiy-statistik tahlil qilish jarayoni statistik tadqiqotning uchinchi va oxirgi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi va qonuniyatlari tahlil qilinadi, ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi.[34, 8-9]

Statistika ijtimoiy hayotda muhim o‘rinni egallaydi, shuning uchun uni to‘g‘ri tashkil qilmasdan turib, mamlakat istiqbolini aniq va to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi.

Respublika hukumati shu nuqtayi nazardan statistikani tashkil etish va uni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor berib kelmoqda. Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo‘lgan statistika mamlakatimiz mustaqilligi davrida birinchi marta

1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 5-avgustdagi Farmoni bilan statistika organlari qaytadan tashkil qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra mamlakatning istiqbolini belgilash qo‘mitasi bilan statistika bosh boshqarmasi birlashtirilib, ularning o‘rniga yagona Istiqbolni belgilash va statistika qo‘mitasi tashkil etildi. Viloyat, shahar va tumanlarda ham ushbu qo‘mitaning tegishli organlari tashkil qilindi.

Qo‘mita va uning organlari hukumatni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlashda o‘z vazifasini ma’lum darajada muvaffaqiyat bilan bajarib keldi. Bozor munosabatlari sharoitida yanada uning rolini ko‘tarish zarurati tug‘ildi. Bozor islohotini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiy boshqarishning bozor uslublarini joriy etishda ularning rolini yanada ko‘tarish, xalqaro norma va andozalarga muvofiq istiqbolni belgilash va statistikaning yanada samarali ishlashini tashkil qilish maqsadida ushbu qo‘mita va uning organlari Prezidentning 1997-yil 15-maydagi farmoni bilan qaytadan tashkil qilindi. Istiqbolni belgilash va statistika qo‘mitasi o‘rniga Makroiqtisodiyot va stastistika vazirligi tashkil qilindi. 2002-yildan boshlab esa bu vazirlik Davlat statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligiga bo‘lindi. [41]

Joylardagi qo‘mita organlari ham qayta tashkil qilingan vazirlik organlariga aylantirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Iqtisodiyot vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahrida iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmalari, Respublika shahar va tumanlarida iqtisodiyot va statistika bo‘linmalari tashkil qilindi. Hozirgi paytda viloyatlarda iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi qoshida statistika boshqarmasi, shahar va tumanlarda iqtisodiyot va statistika bo‘linmasi tarkibida statistika va hisoblash ishlari markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Korxona va tashkilotlarda, idora va vazirliklarda statistika bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar tashkil qilingan. Maxsus statistika bo‘limi bo‘lmagan korxona, tashkilot va muassasalarda statistika masalalari bilan shug‘ullanish vazifasi iqtisod bo‘limiga yoki buxgalteriya bo‘limiga yuklatilgan. Demak, bunday korxonalarda statistika ishini bosh buxgalter yoki bosh iqtisodchi tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlarda, idora va vazirliklarda tashkil qilingan statistika

*ma'muriy statistika* deb ataladi.

Ma'muriy statistika bilan shug'ullanuvchi bo'limlar ma'muriy jihatdan o'zlarining yuqori tashkilotlariga (organlariga), metodik jihatdan esa iqtisodiyot va statistika va uning joylardagi boshqarma va bo'limlariga bo'ysunadi.

Iqtisodiyot vazirligi va statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Nizom va yo'riqnomalar talablari asosida barcha statistika organlari hamda Davlat statistika qo'mitasi oldida hisobot beruvchi korxona va tashkilotlar, idora va vazirliklar ishlashlari shart.

## 1.2. Turizm statistikasi tushunchasi, tarixi, predmeti, uslubiyoti hamda vazifalari

Turizm statistikasi bu – turizm oqimi va tendensiyalar (xalqaro, milliy, hududiy va h.z.), uning tuzilishi, sayyohlarni qabul qiluvchi va jo'natuvchi mamlakatlar to'g'risida doimiy yig'iluvchi, tahlil qilinuvchi va chop etiluvchi axborotdir. Turizm statistikasini xalqaro darajada BTT (Butunjahon Turizm Tashkiloti) olib boradi.

Bundan 400 yillar ilgari mashhur iqtisodchi, Angliyaning klassik siyosati asoschilaridan biri sanalgan U.Petti moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari nisbatini ikkinchi hissasini oshirishga o'zgartirishni taklif qilgan. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi, ayniqsa turizmning o'rni jadallik bilan oshib bormoqda. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1950-2012-yillar mobaynida dunyoda xalqaro turistik tashriflarning soni 41.4 marta, xalqaro turizmning hajmi 512 martaga oshgan. BTT ning ma'lumot berishicha, 2015-yilda xorijiy turistlarning tashriflar soni 4.4% ga oshgan. Bu esa 2014-yilga nisbatan 50 mln oshiq turist (tunovchi sayoyatchilar) xalqaro sayohatlarni amalga oshirganligini bildiradi [107].

Zamonaviy turizm statiskitasining vujudga kelish tarixi statistika fanining o'zi hamda turizmning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bajariladigan statistik funksiyalar hamda ulardan foydalanish uslublardan kelib chiqgan holda turizm statistikasini 4 davrga ajratish qabul qilingan.

**1.1-jadval**

**Turizm statistikasi xronologiyasi**

| Yil, joy | Eng muhim hosdisalar |
|---|---|
| 1937 | Statistika ishlari bo‘yicha Millatlar Ittifoqi kommitet ekspertlari statistik maqsadlarda foydalanish uchun “xalqaro turist” tushunchasini qo‘llashni taklif etildi. |
| 1963, Rim (Italiya) | BMT ning xalqaro sayohat va turizm konferensiyasida “tashrif buyuruvchi”, “turist”, “ekskursant” tushunchalariga ta’rif berildi. |
| **1991, Ottava (Kanada): Sayohatlar va turizm statistikasi bo‘yicha Xalqaro Konferensiya** | |
| | Ottavada bo‘lib o‘tgan konferensiyada statistik axborotda turistik industriyaning ehtiyojlari to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Butunjahon Turizm Tahkiloti (BTT) Bosh Assambleyasining Buenos-Ayresda (Argentina) da bo‘lib o‘tgan IX sessiyasida Ottava konferensiyasiyasida berilgan takliflar ma’qullandi. |
| **1991-2000: Otttava Konferensiyasidan “Turizmning yordamchi hisobi (TYH): tavsiya etiladigan metodologik asos” (1-nashr) hujjati qabul qilingunga qadar bo‘lgan davr** | |
| 1993 | BMT Statistik Komissiyasi XXVII sessiyasida RTS-1993 qabul qilindi. |
| 1999, Nitsa (Fransiya) | Turizmning iqtisodiy ta’sirini baholashga bag‘ishlangan Entso Pachi nomli Butunjahon konferensiyasida TYH roziligi bilan qaror qabul qilindi. |
| 2000 | BMT Statistik komissiyasi XXXI sessiyasida turizm statistikasi yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro standartlar joriy qilindi. |
| **2001-2007: “Turizmning yordamchi hisobi: tavsiya etiladigan metodologik asos” (2000) hujjatidan tortib, yangilangan IRTS-2008 gacha** | |
| 2001, Van-kuver (Kanada) | TYH ni dunyo mamalakatlarida keng qo‘llashni siljitish maqsadida turizm statistikasiga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya o‘tkazildi. |
| 2005, Iguasu-Follz (Argentina, Braziliya, Paragvay) | BTT tomonidan “Turizmning yordamchi hisobi (TYH): turizmni anglash va rivojlanish strategiyasini aniqlash” mavzusidagi Xalqaro konferensiya tashkil etildi. |
| **2008-hozirgi davr: turizm statistikasi yo‘nalishlariga xalqaro standartlarni joriy qilish** | |
| 2008 | BMT Statistik komissiyasining XXXIX sessiyasida IRTS – 2008 hamda “Turizmning yordamchi hisobi: tavsiya etiladigan metodologik asos” hujjatining yangi varianti tasdiqlandi. |

**Manba:** Александрова А.Ю. Статистика туризма. Учебник. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. — 31-32 стр.

Davrlar: Miloddan avvalgi 3000 yildan – XVII asrlarning o‘rtalarigacha, 1654-1746 yillar, 1747-1899 yillar, 1900 yil – hozirgi davr. Statistikada chuqur o‘zgarishlar 3 davrda, statistika fani nazariyasi vujudga kelgan va hozirgi kunga kelib rivojlanishi va mukammallanishiga asos solindi. (1.1-jadval)

XIX asr oxirida Avstriyada turizm sohasi statistikasining ilk kuzatuvlari tashkil etilgan. Undan oldin, 1852-yili Shveysariyada turizm statistikasini rasmiy ravishda tashkil etish masalasi ko‘tarilgan. XIX-XX asrlar oralig‘ida turizm yo‘nalishi bo‘yicha mufassal tadqiqotlar olib borilgan, bunga misol qilib avstriyalik olim R. Engelmanning turizm to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni ilmiy tahlilda keng qo‘llaganligini keltirish mumkin. Yuqoridagi misollardan ko‘rish mumkinki, turizm statistikasining vujudga kelishida Avstriya va Shveysariya mamlakatlari asosiy turtki bo‘lgan. Ular turistik harakat ko‘lami hamda turizmning davlat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida yuqori ahamiyat egallaganligi bilan ajralib turganlar. O‘sha davrda Avstriya va Shveysariya xalqaro turistik tashriflar hajmi bo‘yicha peshqadam mamlakatlardan biri bo‘lgan.

Turizm sohasida statistik kuzatuvlar 2 asosiy usullar orqali namoyon etilgan: chegaradagi qaydlar va joylashish xizmatini taklif etuvchi tashkilotlaridagi tashriflarni ro‘yxatga olish. Bundan tashqari, bank usuli hamda tanlovli tekshirish ham qo‘llanilishi mumkin [21, 32-34].

Turizm statistikasi keng ko‘lamli masalalar yechimini o‘ziga qamrab oladi. Turizm statistikasining vazifalari quyidagilarni o‘ziga qamrab oladi:

- Turistik ma’muriyatni konsepsiya, strategiya va turizmni rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etishda vujudga keladigan bir qator savollar bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur axborotlarni yetkazish;
- Turistik industriya tashkilotlari rahbarlari hamda menejerlariga makro turistik bozorlarda biznesni samarali olib borish, investitsiya to‘g‘risidagi

qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, xizmatlarni sotish bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish;

- Keng ommani, ilmiy va o‘quv muassasalarni, alohida shaxslarni turizm sohasining so‘nggi yakunlari va o‘zgarishlar to‘g‘risida xabardor qilish;
- Xalqaro tashkilotlarni, shu qatori BTT ni, turizm sohasida xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq muammolarni yechishda axborot bilan ta’minlash.

So‘nggi yillarda dunyoda turizm statistik hisobining amaliyoti hamda metodologiyasida sezilarli rivojlanishlar kuzatilmoqda. Bunga axborotga bo‘lgan talabning o‘sishi va uning zamonaviy informatsion jamiyatdagi tutgan o‘rni sababdir. Ko‘pgina insonlar statistik ma’lumotlardan xabardorlik saviyalarini oshirishda yoki korxona faoliyati bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishda foydalanishadi. Ayniqsa boshqaruv faoliyatida axborotning o‘rni oshib bormoqda. Boshqaruvning barcha darajalarida – mikrofirmalar hamda alohida korporatsiyalardan tortib hududiy va davlat darajasida - qarorlar qabul qilish uchun ishonchli, aniq, ommabop va to‘liq statistik ko‘rsatkichlar zarurdir.

Statistika boshqaruvda talab etiladigan iqtisodga doir xabarlarni yig‘ish, tartibga solish va tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Har bir statistik tadqiqot kabi turizm statistikasi 3 bosqichni o‘z ichiga oladi:

- statistik kuzatuv – birinchi darajali statistik axborot yig‘imi;
- yig‘ilgan statistik ma'lumotlarni hamda kuzatuvlar natijasini umumiylash va guruhlarga ajratish
- olingan natijalarni tahlil qilish.

**Birinchi bosqish** statistik ma’lumotlar yig‘indisini jarayonini o‘z ichiga oladi. Bunda ommaviy kuzatuv usullari qo‘llaniladi, bunda statistika qonuniyatlari katta sonlar qonunlariga muvofiq faqat ko‘p miqdordagi axborot mavjudligida namoyon bo‘lishi mumkin.

Statistik tadqiqotning **ikkinchi bosqichida** olingan axborotga ishlov berish ko‘zda tutiladi. Bunda qisman yoki umumiy xulosalar olinadi, o‘rganilayotgan hodiasaning ijtimoiy - iqtisodiy xillarni aniqlash uchun

ma’lumotni tizimlash va guruhlash amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot bosqichi tarkibi – yakka ko‘rsatkichlardan barcha ma’lumotlarni yagona birlikka keltirish.

**Uchinchi bosqichda** statitik ko‘rsatkichlar (absolyut, o‘rta va nisbiy kattaliklar, koeffitsientlar) yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish va axborotni guruhlarga ajratish amalga oshiriladi.

Turizm industiyasining mamlakat va xalqaro iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ta’siri kundan kunga o‘sib bormoqda, ushbu sohaning globallashuvi axborotning umumiy talablari javob berishini talab etadi: ma’lumotlar kunlik, ya'ni muntazam bo‘lishi, BMT 1993 yilda (Milliy Hisoblar Tizimi – 93) ning milliy hisoblar Tizimi talablariga mos kelishi lozim.

***Turizm to‘g‘risidagi axborot manbai*** bo‘lib iqtisod sohalari bo‘yicha taqdim etiladigan federal va hududiy statistik hisobotlar hisoblanadi: mehmonxonalar, restoranlar, transport, aloqa, xizmatlar ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar; kommunal, ijtimoiy, personal xizmatlar va hokazo.

Mamlakat statistikasi doirasida turli boshqaruv organlari ma’lumotlar bazasida turizm sohasi bo‘yicha alohida yo‘nalishlarning axborot fondi shakllanadi. Ular:

- turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari;
- turizm sohasidagi mehnat va ish haqqi;
- xalqaro turistik oqim;
- turistik tashish;
- mehmonxona;
- maxsus joylashtirish vositalari;
- umumiy ovqatlantirish;
- turizm uchun tovarlar ishlab chiqarish;
- turizm sohasidagi to‘lanadigan xizmatlar;
- turistik xizmatlar narxlari;
- turistik soha moliyasi;

- turizm sohasiga qilingan investitsiyalar;
- turistik firmalar faoliyati;
- turistik resurslar;
- xalqaro taqqoslash.

**Turizm statistikasiga axborot oqimi** ikki yo‘nalish bo‘yicha shakllanadi. Birinchi oqim iste’molchilarning turistik xizmatlarga bo‘lgan talabini aniqlaydi. Ushbu yo‘nalishda turistik xizmatlar iste’molchilarning hajmi va tuzilmasi to‘g‘risidagi ijtimoiy - iqtisodiy axborotlar o‘rganiladi: afzalliklar, ushbu xizmatlarni iste’mol qilishda haqiqatdagi xarajatlar hajmi; bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullari va yo‘nalishlari; aholining ijtimoiy va demografik tarkibi; turistik xizmatlar iste’molchilari alohida guruhlarining to‘lashga moyilligi.

Axborotning ikkinchi oqimi turistik xizmatlar resurslari taklifi bilan bog‘liq. Bunga tabiat, tarixiy, ijtimoiy va madaniy turistik resurslar misol bo‘la oladi. Shu bilan birga, turistik resurslarga joylashtirish, ekskursiya va transport kabilarga hamrohlik qiluvchi xizmatlari; tibbiy, moliyaviy, sug‘urta, xavfsizlikni ta’minlash xizmatlari va hokazolar kiradi. [21, 21-33]

Turistik oqim to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar sayohatlar maqsadlari, qo‘llaniluvchi transport turi, davlatga kirish oyi, hududi va turistlarning istiqomad qiluvchi mamlakatlaridan tashrifi kabi guruhlarga ajratiladi [37].

BTT dunyo mamlakatlarini 6 ta turistik makrohududga ajratadi [108]:

1) Yevropa – Shimoliy, Janubiy, Sharqiy, G‘arbiy va Markaziy Yevropa, hamda Sharqiy O‘rtayer dengizi mamlakatlari (Izroil, Kipr, Turkiya).

2) Amerika – Shimoliy, Janubiy, Markaziy Amerika mamlakatlari, orolda joylashgan davlatlar hamda Karib havzasi hududlari.

3) Osiyo va Tinch okeani – Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniya.

4) Afrika – Afrika mamlakatlari, Misr va Liviyadan tashqari.

5) Janubiy Osiyo – Janubiy Osiyoning barcha davlatlari.

6) Yaqinsharq – G‘arbiy va Janubi-G‘arbiy Osiyo, Misr va Liviya.

## 1.3. Turizm statistika ma'lumotlarni yig'uvchi va tizimlashtiruvchi tashkilotlar

Dunyo bo'ylab sayyohlik aloqalarining tarqalishi, turizm sohasida xo'jalik faoliyatining transmilliylashishi hamda yagona turistik bozorning shakllanishi turizmning xalqaro statistik o'lchamlariga ehtiyoj tug'ilishiga olib keldi. Unda yagona uslubiyotga asoslangan, bir-biriga muvofiq ma'lumotlarni qo'llash taklif etiladi. Turizm statistikasi global statistik tizimning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda.

**Global statistik tizim va turizm.** Global statistik tizimni yaratishdan asosiy maqsad statistik faoliyatni milliy va xalqaro miqyosda amalga oshirishda resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Ushbu tuzilmaning markazi BMT bo'lib, uning doirasida statistik xizmat tarmog'i mavjud. 1946-yili BMT Statistik Qo'mitasi tashkil topgan. Ushbu qo'mita dunyo mamlakatlari hamda xalqaro tashkilotlarning statistikaga oid faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi Global statistika tizimining yuqori organidir. Uning vazifalariga statistik ma'lumotlarni yig'ish jarayonini takomilllashtirishga ko'maklashish, jumladan, dunyo mamlakatlari statistika faoliyatini bir-biriga moslashtirish, BMT ixtisoslashgan tashkilotlari statistik faoliyatini muvofiqlashtirish, statistika masalalari bo'yicha BMT a'zolariga uslubiy maslahatlar berish kiradi.

Statistika komissiyasi harakatlari natijasida xalqaro statistikaning sifati va amaliy qo'llanilishi sezilarli darajada yaxshilandi. BMT statistika standartlari xalqaro tashkilotlar uchun majburiy bo'ldi va milliy statistikaning ichki faoliyatida qo'llanilishi tavsiya etildi. [21, 32-45]

2008-yili BMT Statistika Komissiyasi tomonidan milliy darajada hisobotni olib borish uchun birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi xalqaro standartining yangi shaklini (Milliy hisoblash tizimi – 2008) ishlab chiqib, u barcha statistik ma'lumotlarini yig'ish milliy tizimlari uchun uslubiy asos sifatida qo'llanilmoqda. Statistika komissiyasi faoliyatining yakuniy maqsadi qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, iqtisodiy-

ijtimoiy rivojlanishni baholash uchun Xalqaro statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash hamda tarqatishning yagona tizimini ishlab chiqish, belgilangan.

Statistika komissiyasining faoliyat ko‘rsatuvchi organi bo‘lib BMT Statistik bo‘lim Sekretariati hisoblanadi. U jahon mamlakatlari taraqqiyoti to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi, BMT tizimidagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik kabi global darajadagi ma’lumotlar saqlanadigan joy vazifasini bajaradi.

BMT ushbu axborotlar yordamida dunyodagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvol to‘g‘risida umumlashtiruvchi qisqacha ma’lumotlarni tayyorlaydi. Ushbu bo‘lim xalqaro statistik standartlar va qoidalar, ularni qayta ishlashga hamda mamlakatlarning milliy statistik tizimini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatini qo‘llab quvvatlashga ixtisoslashgan.

Hozirgi kunga BMT Statistika Komissiyasi Statistika bo‘lim bilan hamkorlikda global darajada statistik faoliyatni uyushtiradi. U 230 dan ortiq mamlakat va hududlar statistika xizmatlari, hamda 2 mingga yaqin turli xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan.

Xalqaro statistika yagona tizimiga BMT hududiy komissiyasi kiradi (masalan, Yevropa uchun – Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi). Ushbu komissiyalar sekretariatlarida statistik bo‘limlar tashkil qilingan. Ular mamlakatlar va hududlardan keladigan axborotni birlashlashtirish, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda xalqaro statistik standartlarni joriy qilishga yordam berish bilan shug‘ullanishadi.

Tarmoqli statistikaga tegishli masalalar BMT ixtisoslashgan tashkilotlari tomonidan yechiladi. Demak, Qishloq xo‘jalik statistikasi bilan BMT oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi statistikasi, madaniyat statistikasi – ta’lim masalalari bo‘yicha BMT statistika Instituti, ilm va madaniyat – YUNESKO, sog‘liqni saqlash statistikasi – Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib boriladi. Ular a’zo mamlakatlar faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotni yig‘ish, umumiylashtirish va nashr qilish bilan shugullanishadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan tashkilotlar bilan bir qatorda BMT ning tarkibiy qismiga kirmaydigan, ammo Global statistik tizimning ajralmas bo‘lagi bo‘lgan xalqaro tashkilotlar ham mavjud. IRHT (Iqtisodiy Rivojlanish va Hamkorlik Tashkiloti), Yevrostat, MDH va boshqalar shular jumlasidan. Ular a’zo mamlakatlar faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotni yi’g‘ish, umumlashtirish va nashr qilish bilan shug‘ullanishadi. Ushbu tashkilotlar BMT xalqaro statistika standartlariga asoslangan holda, tegishli ko‘rsatkichlar yagona hisobi bo‘yicha o‘zlarining tavsiyanomalarini ishlab chiqishadi. Shu bilan davlatlar statistik ko‘rsatkichlarining bir-biriga mosligiga erishishadi.

Shu bilan birga, Global statistik tizim doirasiga milliy statistik korxonalar kirib, ular dunyoning turli mamlakatlari va hududlarida yaratilgan, hamda mahalliy va xorijiy iste’molchilar uchun statistik axborotni yig‘ish, qayta ishlash va nashr qilish kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha tashkilotlar xalqaro statistika, shu bilan birga turizmga oid katta hajmdagi ma’lumotlar oqimidan birgalikda foydalanishadi. Mavjud axborotni tartibga solish maqsadida BMT tomonidan dunyodagi ma’lumotlar harakatining aniq dasturi ishlab chiqilgan. Avvalambor, mamlakatlardan BMT xalqaro tashkilotlari tizimiga statistik axborotni doimiy yetkazuvchi kanallar to‘g‘risida gap bormoqda (1.1-chizma). Ma’lum miqdorda ushbu muammoning yechimi xalqaro hisob markazlari yaratilishi, internet tarmoqlarining hamda sun'iy yo‘ldosh kanallari aloqalarining birlashishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, BMT xalqaro statistik ma’lumotlar oqimini takroriy amalga oshirmaslik maqsadida hamda yig‘ish, umumlashtirish, tarqatishda qilinadigan mablag‘larni tejash evaziga oqilona tashkil qilishga erishadi.




**1.1-chizma. BMT orqali xalqaro statistik axborotni yetkazish kanallari**

**Manba:** А.Ю. Александрова, СТАТИСТИКА ТУРИЗМА. Учебник. - М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — 37 с.

**Turizm statistikasi sohasida BTT faoliyati.**

Xalqaro turizmning yetakchisi bo‘lib BTT hisoblanadi. BMT hamda BTT o‘rtasidagi 23-dekabr 2003-yil [67] bitim imzolandi. U 21 moddadan iborat bo‘lib, 13-moddasi “Statistik xizmatlar” deb ataladi. Ushbu moddada BTT vakolat doirasi va ahamiyati hamda turizm statistikasi jabhasida BMT bilan o‘zaro aloqasiga aniqlik kiritilgan. Modda 3 bo‘limdan tashkil topgan. Ular:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Butunjahon Turizm Tashkiloti yaqin hamkorlik qilish, ishning asossiz takroriy amalga oshirilishini oldini olish, axborotni yig‘ish, tahlil qilish, nashr qilish va tarqatishda xodimlari faoliyatidan samarali foydalanishga kelishishadi. Ular statistik axborotning tadbiq qilinishi va qo‘llanilishini ta’minlash, ularning muvofiq statistik tadbirlarda o‘zaro moslikni kafolatlash hamda bunday statistik ma’lumot olinishi mumkin bo‘lgan huquqiy va boshqa tashkilotlar yelkasidagi yukni yengillashtirish maqsadida o‘zaro birlashishga kelishishadi.

2. Birlashgan Millatlarning Butunjahon Turizm Tashkiloti umumiy maqsadlarda xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladigan turizmga tegishli bo‘lgan statistik ma’lumotlarni yig‘uvchi, tahlil qiluvchi, standartlashtiruvchi va yaxshilovchi markaziy tashkilot sifatida tan oladi.

3. BMT Butunjahon Turizm Tashkilotini statistik ma’lumotlarni yig‘uvchi, tahlil va nashr qiluvchi, standartlashtiruvchi va takomillashtiruvchi, hamda tashkilot tomonidan taqdim etiladigan statistik axborotlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi doirasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muassasa sifatida tan oladi.

BTT tuzilmasida Statistika Ko‘mitasi va Turizmning yordamchi hisobi (TYH) yaratildi. U turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini baholay olish uchun sohada statistik ko‘rsatkichlarni mukammallashtirish, turizm statistikasi rivojlantirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi vosita bo‘lishini ta’minlash, sifatli ma’lumot taqdim etish orqali natijaga yo‘naltirilgan turizm menejmentini

siljitish, axborot bilan to‘liq ta’minlangan turistik siyosatni ishlab chiqishga strategik yondashish maqsadida tashkil etilgan.

Statistika Qo‘mitasi va Turizmning yordamchi hisobi BTT tomonidan boshqariladigan ijro etuvchi kengash huzuridagi yordamchi organ hisoblanadi. Uning funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ Turizm sohasida xalqaro statistik standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha takliflar taqdim etish;
- ❖ Statistika turizmining xalqaro darajada o‘zaro mosligini yaxshilash maqsadida axborotni yig‘ish, umumlashtirish va tarqatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ❖ BTTga a’zo mamlakatlar turizm statistikasi milliy tizimini takomillashtirishga va Turizmning yordamchi hisobini rivojlantirishga ko‘maklashish ko‘rsatish;
- ❖ BMT tizimi doirasida statistik ma’lumotlar almashish va faoliyat muvofiqligini ta’minlash maqsadida boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish;

BTT turizm statistikasi sohasida Statistika komissiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Uning sessiyalarida RTS-1993, IRTS-2008, “Turizmning yordamchi hisobi: tavsiya etilgan metodologik asos” (2000, 2008), Turizm to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha tavsiya va boshqa meyoriy hujjatlar ko‘rib chiqilgan. Ushbu hujjatlar barcha xalqaro statistik standartlar uchun amal qilinishi majburiy bo‘lgan umumiy tartib asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Tavsiyalar BMT Statistik komissiyasiga yuborilgan talabnomalar asosida mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi. So‘ng ular mamlakatlar va Statistik komissiyada muhokama qilinib, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga yakuniy muhokama qilish va ma’qullash uchun topshiriladi. Keyingina ushbu tavsiyanoma BMT ning rasmiy hujjatiga aylanadi (1.2 – chizma).




**1.2 – chizma. BMT ning xalqaro statistika bo‘yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish sxemasi**

**Manba:** Александрова А.Ю. Статистика туризма. Учебник. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. — 41 с.

Chizmadagi raqamlar:
1 – dastlabki so‘rov; 2 – taklif loyihasi; 3 – mamlakatlar mulohazasi; 4 - boshlang‘ich loyiha; 5 – tavsiyanoma loyihasi; 6 – BMT tavsiyanomasi

**Turizm statistikasi sohasida Iqtisodiy Rivojlanish va Hamkorlik Tashkiloti (IRHT) va Yevrostat faoliyati.** BTT bilan bir qatorda turizm statistikasining rivojlanishida IRHT hamda Yevrostat faoliyati ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar turizm sohasida xalqaro statistik standartlarni ishlab chiqish va tadbiq etishga katta hissa qo‘shgan. Statistik faoliyat ko‘lamini hisobga olganda, ularni dunyodagi turizm statistikasining asosiy markazlaridan biri deb hisoblash mumkin.

IRHT ga a’zo mamlakatlarda turizm xizmatlar sohasining eng muhim komponenti hisoblanadi. 1984-yili tashkil topgan Turizm Qo‘mitasi hozirgi kunda turizm sohasida xalqaro hamkorlikning turli jihatlari muhokama qilinadigan IRHT ning markaziy maydoniga aylangan. Qo‘mitaning asosiy faoliyati turizmning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati metodologiyasiga mos xalqaro statistik standartlar qabul qilish orqali e’tiborni qaratish.

Turizm Qo‘mitasi IRHT ga a’zo mamlakatlarga, hamda alohida holatlarda tashkilotga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarga ham quyidagi vaziyatlarda yordam ko‘rsatadi:

- O‘rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish, turizm sohasida samarali siyosat olib borish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan boshqa sohalar – ta’lim, atrof-muhit muhofazasi, innovatsion faoliyat, bandlik, transport kabilarga oid siyosatni ishlab chiqish evaziga turizm rivojlanishidan maksimal darajada iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik manfaat ko‘rish;

- uzoq muddatli turizm rivojlanishida iqtisodiy o‘sish katalizatori sifatida aholining bandligini nafaqat alohida yirik shahar markazlarida, balki barcha hududlarda oshirish;

- turistik destinatsiyalarning brendi va raqobatbardoshlikligini kuchaytirish, hamda umumiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida hududni mahalliy aholi, tashrif buyuruvchilar va investorlar uchun jozibador joyga aylantirish;

- uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishish maqsadida turizm sohasida olib boriladigan siyosatni samarali isloh qilish;

- turizm sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish.

Bugungi kunda turizm statistikasi quyidagi maqsadlarda olib boriladi [123]:

- ✓ Xalqaro tuzimning mamlakatlar iqtisodiyotiga, xususan – to‘lov balansiga ta’sirini baholash;
- ✓ Turizm material-texnik bazasini rejalashtirganda, uning rivojlanishi, asosiy tendensiyasi va yo‘nalishlarini aniqlash;
- ✓ Marketing tadqiqotlarini olib borish hamda potensial iste’molchiga turmahsulotni siljitish.

## I bob bo‘yicha xulosa

Statistika makon va zamonda sodir bo‘ladigan ommaviy ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini sifat tomonlari bilan chambarchas bog‘lagan holda o‘rganadi.

Turizm statistikasi bu – turizm oqimi va tendensiyalar (xalqaro, milliy, hududiy va h.z.), uning tuzilishi, sayyohlarni qabul qiluvchi va jo‘natuvchi mamlakatlar to‘g‘risida doimiy yig‘iluvchi, tahlil qilinuvchi va chop etiluvchi axborotdir. Turizm statistikasini xalqaro darajada BTT (Butunjahon Turizm Tashkiloti) olib boradi.

Statistika komissiyasining faoliyat ko‘rsatuvchi organi bo‘lib BMT Statistik bo‘lim Sekretariati hisoblanadi. U jahon mamlakatlari taraqqiyoti to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi, BMT tizimidagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik kabi global darajadagi ma’lumotlar saqlanadigan joy vazifasini bajaradi.

BMT ushbu axborotlar yordamida dunyodagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvol to‘g‘risida umumlashtiruvchi qisqacha ma’lumotlarni tayyorlaydi. Ushbu bo‘lim xalqaro statistik standartlar va qoidalar, ularni qayta ishlashga hamda mamlakatlarning milliy statistik tizimini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatini qo‘llab quvvatlashga ixtisoslashgan.

Hozirgi kunga BMT Statistika Komissiyasi Statistika bo‘lim bilan hamkorlikda global darajada statistik faoliyatni uyushtiradi. U 230 dan ortiq mamlakat va hududlar statistika xizmatlari, hamda 2 mingga yaqin turli xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan.

**Turizm statistikasiga axborot oqimi** ikki yo‘nalish bo‘yicha shakllanadi. Birinchi oqim iste’molchilarning turistik xizmatlarga bo‘lgan talabini aniqlaydi. Ushbu yo‘nalishda turistik xizmatlar iste’molchilarning hajmi va tuzilmasi to‘g‘risidagi ijtimoiy - iqtisodiy axborotlar o‘rganiladi: afzalliklar, ushbu xizmatlarni iste’mol qilishda haqiqatdagi xarajatlar hajmi; bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullari va yo‘nalishlari; aholining ijtimoiy va demografik tarkibi; turistik xizmatlar iste’molchilari alohida guruhlarining to‘lashga moyilligi.

Axborotning ikkinchi oqimi turistik xizmatlar resurslari taklifi bilan bog‘liq. Bunga tabiat, tarixiy, ijtimoiy va madaniy turistik resurslar misol bo‘la oladi. Shu bilan birga, turistik resurslarga joylashtirish, ekskursiya va transport

kabilarga hamrohlik qiluvchi xizmatlari; tibbiy, moliyaviy, sug'urta, xavfsizlikni ta'minlash xizmatlari va hokazolar kiradi.

## II bob. Turizmda statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning xalqaro uslubiyoti.

### 2.1. Xalqaro turizm statistikasida turistik oqim, turistik daromad va xarajatlar hisobini yurgizish usullari.

Xalqaro turizm statistikasida axborot yig'ishning turli shakllari qo'llaniladi. Statistik kuzatuvlar hisobot yoki maxsus o'tkaziladigan tadqiqot vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Hisobot usuli orqali statistik kuzatuvlar.** Ushbu holatda statistik ma'lumotlar tashkilot, korxona va h.z lardan ma'lum davrda hamda belgilangan shakllarda qabul qilinadi. Ular tomonidan operativ va buxgalteriya hisobi asosida hisobotlar to'ldiriladi va statistika organlariga yuboriladi. Aynan hisobot usuli orqali to'plangan axborotlar turizmga oid statistik  ma'lumotlarning asosiy hajmini qamrab oladi.

Shu bilan birga, turistik oqim statistikasida tashriflar va tashrif davomiyligi to'g'risidagi axborot immigratsion xizmat yoki joylashtirish vositalari hisobotlaridan olinishi mumkin. Hozirgi kunda sayyohlarni ro'yxatdan o'tkazish  dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlarida chegarada va 40 ga yaqini joylashritish vositalarida amalga oshiriladi.

Mamlakat chegarasidagi statistik hisob davlatga kirish va undan chiqishdagi immigratsion nazorat vositalari orqali olib boriladi. U nazorat-o'tkazish nuqtalarida, aeroportlar, portlar va h.z.larda amalga oshiriladi. Sayohat qiluvchi shaxslar to'g'risidagi asosiy axborot maxsus regisrtatsiya shakllaridan olinib, ularga kirish (chiqish) kartochkalari, shu bilan birga, xorijiy passport va vizalar kiradi. Unda turistning yoshi, doimiy yashash joyi, sahoyat maqsadi va muddati kabi ma'lumotlar mujassam bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni yig'ish turist sayohat qilayotgan mamlakatdan chiqib ketayotganda amalga oshirish maqulroq. Chunki sayohat tugagach, sayyohlar ancha aniqroq ma'lumotlarni keltirishlari mumkin. Sayohat muddati va marshrutiga turli xil vaziyatlardan (havoning

o‘zgarishi, sog‘liqning yomon bo‘lishi, yangi qiziqarli diqqatga sazovor joylar to‘g‘risida eshitish va h.z.) kelib chiqqan holatda tez-tez o‘zgartirishlar kiritiladi.

| | |
|---|---|
| Immigratsion xizmat | Tashrif kartochkasi tartib raqami №_______ |
| Yoshidan qat’iy nazar, barcha sayohat qiluvhci shaxslar tomonidan to‘ldiriladi (passportdagi ma’lumotlarga muvofiq holda) | |
| 1. Familiya | Ism |
| 2. Jinsi<br><br>Erkak ______ Ayol _____ | 3. Tug‘ilgan yili<br><br>Kun _____ Oy ___________ Yil _____ |
| 4. Fuqarolik | 5. Faoliyat turi |
| 6. Tashrif buyurayotgan mamlakatdagi joylashish manzili ______________________________<br>Uy, ko‘cha, shahar | |
| 7. Doimiy yashaydigan mamlakatdagi manzili (uy adresi) | |
| 8. Passport №_______________ Berilgan joyi __________________________<br>Berilgan vaqti __________________________________________<br>Kun, oy, yil | |
| 9. Kelayotgan yo‘lovchilar uchun qo‘nish nuqtasi__________________________<br><br>Jo‘nab ketayotgan yo‘lovchilarning to‘xtash nuqtasi __________________________ | |
| 10. Tashrifdan asosiy maqsad (mos kvadratga belgi qo‘ying) | |
| 1) rezidentlarning qaytishi ___<br><br>2) immigratsiya<br><br>(savdoni hisobga olgan holda ) ___<br><br>3) dam olish, rekreatsiya va ta’til ___<br><br>4) do‘stlarni va qarindoshlarni ko‘rishga borish ___________ | 5) ish va professional maqsadlar ___<br><br>6) davolanish ___<br><br>7) diniy maqsadlar/ziyoratchilik_____________<br><br>8) boshqalar_________________________ |
| Immigratsion maqomi | |
| Xizmatga oid qaydlar uchun | |
| Eslatma: | Kartochkada turistlarning mamlakatga tashrifning davomiyligini aniqlash maqsadida kelish va ketish sanalari ham to‘liq to‘ldirishlari maqsadga muvofiq. |

**2.1 – chizma. Kirish (chiqish) kartochkasining namunaviy shakli**

**Manba:** http://www.studfiles.ru/preview/5265685/page:10/

Chegaradagi hisob ko‘pgina mamlakatlarda qo‘llaniladi. Ayrim davlatlar o‘rtasida chegara statistikasini olib borish uchun ikki tomonlama yaqin hamkorliklar o‘rnatilgan. Masalan, Kanada davlati AQSH dan sayohat qilib qaytgan fuqarolari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘adi va ularni AQSH milliy turistik boshqaruv organing taqdim etadi. AQSH va Kanadadan tashqari, chegaradagi tashriflar statistikasi Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Kipr, Portugaliya, Avstraliya, Singapur, Turkiya, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Polsha, Vengriya, Bolgariya) va boshqa davlatlarda qo‘llaniladi. Kirish (chiqish) kartochkalari shakllari mamlakatlarda turlicha bo‘lganligi sababli, BTT tomonidan unga a’zo bo‘lgan davlatlarda qo‘llanilishi tavsiya etilgan namuna shakli ishlab chiqilgan (2.1- chizma).

Kirish (chiqish) kartochkalarida turistlar sayohat davomida ko‘radigan diqqatga sazovor joylar, qatnov davomiyligi (tunash qiymati), joylashish kabilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud emas. Shuning uchun, chegaradan olib boriladigan hisobdan tashqari, statistik kuzatuvning joylashtirish vositalaridagi tashrif registratsiyasi usuli qo‘llaniladi. Ushbu hisob chegaradagi hisobni yaxshi to‘ldiradi va ayrim mamlakatlarda hatto o‘rnini bosadi. Mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalarida yig‘iladigan statistika ma’lumotlar mamlakat viloyatlari bo‘ylab turistlarning taqsimlanishini baholashga, xalqaro va ichki sayyohlarning joylashish vositalari tanlovidagi afzalliklarini aniqlashga, shu bilan birga, mehmonxona bandligi darajasini nazorat qilishga ko‘maklashadi. Bunday usul ancha oson bo‘lishiga qaramay, birinchi hisob operatsiyalarini bajaruvchi reception ishchilaridan diqqat, ehtiyotkorlik va intizomni talab qiladi.

Joylashish paytida sayyohlar tomonidan to‘ldiriladigan maxsus varaqalar taqdim etiladi. Kartochkadagi kataklarga ma’lumotlarni yozishdan tashqari, xizmat safariga chiqqanlarni ishlash manzillari hamda mehmonxona xizmatlari haqini to‘lash shakllari (naqd pul, kredit kartochkalar yoki pul ko‘chirish) to‘g‘risiga so‘raladi. Ro‘yxatdan o‘tqazish formasida mehmonxona

xizmatlaridan foydalanishning asosiy qoidalar va undagi ichki tartib, hamda yong‘inga qarshi xavfsizlik tadbirlari talablari ko‘rsatilishi mumkin.

Mehmonxona nomi_________________________________

_______________________________________________________________

davlat shahar

Familiya _______________________________________________________

Ism _______________________________________________________

Fuqarolik _______________________________________________________

Kasb _______________________________________________________

Tug‘ilgan kuni ____________________________________________________

sana,oy,yil

Tug‘ilgan joyi _____________________________________________________

Doimiy yashash manzili ko‘cha ___________________________________

Shahar ______________ mamlakat ____________

Qayerdan (mamlakat) tashrif buyurdi_____________________________________

Qayerga (mamlakat) yo‘l olmoqda _______________________________________

Transport turi ______________________________________________________

avtomobilning registratsion raqami

Passport № _____________ berilgan_______________ berilgan sana ___________

Mehmonxonaga kirish sanasi____________________________________________

Tashrif davomiyligi __________________________________________________

Oila boshlig‘iga hamroh shaxslar soni _____________________________________

| | |
|---|---|
| shahar | sana<br>_____________________________________<br>sayohatchi imzosi |

**2.2 – chizma. Joylashtirish vositalari uchun namunaviy registratsiya shakli**

Manba: [http://studopedia.su/13_174848_tipovoy-obrazets-registratsionnoy-formi-dlya-sredstva-razmeshcheniya.html](http://studopedia.su/13_174848_tipovoy-obrazets-registratsionnoy-formi-dlya-sredstva-razmeshcheniya.html)

Mijozning ushbu shaklga qo‘ygan imzosi unga xabar qilingan axborotni yetkazilganligi, amal qilinishi lozim bo‘lgan yashash shartlari bilan tanishganligi, hamda joylashtirish va boshqa qo‘shimcha xizmatlariga belgilangan amaldagi narxlar haqida xabardor etilganligidan dalolat beradi. Mehmonlar kartochkalari turli mamlakatlarda turlichadir. Xalqaro darajada joylashtirish vositalaridan olinadigan axborotni standartlashtirish maqsadida BTT tomonidan namuna shakli ishlab chiqilgan (2.2 - chizma).

Mehmonlar kartochkasidagi axborotlar tashriflar registratsiyasi kitobida qayd qilinadi va xonalar fondi kitobiga ko‘chiriladi. Tashriflar registratsiyasi kitobida tashrif buyuruvchilarning mehmonxonaga ro‘yxatga olish va ro‘yxatdan chiqarish ko‘rsatiladi. Ikkinchi kitobida esa nomerlar fondi tarkibi va ularning qo‘llanilishi, ma’lum vaqt ichida qancha kishi qabul qila olishi yoziladi. Kitoblarda yig‘ib boriladigan ma’lumotlar qabullar miqdori, tashriflarning o‘rtacha davomiyligi, hamda xonalar bandligini aniqlashga yordam beradi. Kompyuter tizimlari bilan ta’minlangan yirik mehmonxonalarda birlamchi hisob operatsiyalari va keyingi jarayonlarni bajaruvchi maxsus programmalardan foydalaniladi. Statistik kuzatuvlar to‘liq va ishonchli bo‘lishi uchun yuqori mavsumiy davrlar bilan chegaralanib qolmasdan, yil bo‘yi mehmonxona va boshqa tunash vositalari xizmatidan uzoq va qisqa vaqt davomida foydalangan barcha mehmonlar ham qamrab olingan bo‘lishi lozim.

Tashriflar registratsiyasi va nomerlar fondi kitoblari statistik hisobot olib borishda to‘ldiriladigan shakl uchun asosiy ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu shakl joylashtirish vositasi tavsifi (turi, kategoriyasi, joylar miqdori, band ishchilar soni va h.z.), mijozlarning doimiy yashaydigan mamlakatdan tashqarida kunlik tashriflar va jo‘nashlar, yakunida nomerlar bandligi va oylik tashriflar qiymatidan tashkil topgan jadvaldir. Shaklning orqa tomonida jadvalni to‘ldirishning batafsil yo‘l-yo‘riqlari va statistik organning ma’lumotlar sir tutilishi kafolatlanganligi ko‘rsatilgan.

Mavjud hisobot shakllari joylashtirish muassasalari tomonidan har oyda to‘ldirib boriladi va har oy belgilangan muddatlarda milliy turistik

ma'muriyatlar yoki statistika organlariga yetkaziladi. Bu yerda qabul qilingan ma'lumotlar turistik tashriflar va tunashlar, tashrifning o'rtacha davomiyligi, nomerlar va o'rinlar qiymati, ularning bandlilik koefitsienti mamlakat bo'yicha umumlashtiriladi va kalendar oylari, turistlarning doimiy yashash joylari, joylashtirish vositalarining turlari va kategoriyalari, ularning joylashuvi bo'yicha guruhlarga ajratiladi.

Bunday katta hajmdagi hisobot ishining muvaffaqiyatli bo'lishi barcha joylashtirish vositalarida registratsiya qilingan mehmonlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligiga bog'liq. Ammo ushbu tashkilotlarning ayrimlari to'ldirilgan shakllarni qaytarishmaydi. Bunga sabab, ular tomonidan beriladigan ma'lumotlar soliq xizmatining e'tiborini tortishi, bu esa jiddiy muammolarga olib kelishi mumkinligidir. Yig'ma jadvallarni tuzayotganda hamda umumlashtirilgan hisoblarni bajarayotganda o'rganilayotgan holatning to'liq ko'lami juda muhim bo'lganda ularga nisbatan o'tgan davrdagi axborotlar qo'llaniladi. Bu yakuniy xulosalarga zarar yetkazmaydi, chunki odatda bunday joylashtirish vositalari hajmi jihatidan kichik bo'ladi.

Joylashtirish vositalaridagi tashriflar registratsiyasi Germaniya, Shveysariya, Ispaniya, Marokash, Tunis, Niger, Senegal, Tanzaniya va boshqa mamlakatlarda olib boriladi.

Ko'rib chiqilayotdan kuzatuv usuli keng tarqalgan bo'lishiga qaramay bir nechta kamchiliklarga ega. Birinchidan, statistik tadqiqotlarda bir kunlik sayyohlar hisobga olinmaydi, umuman olganda turistlar boshqa mehmonlar bilan bir qatorda registratsiya qilinadi va odatda mustaqil kategoriya sifatida ajratilmaydi. Masalan, G'arbda mehmonxonalarda tez-tez hayotning bir xilligidan charchagan mahalliy aholi vakillari mehmon bo'lishadi. Ular o'zlarining yashash muhitlarini o'zgartirish maqsadida o'z uylarining yaqinidagi mehmonxonalarga ko'chib o'tishadi va ular ham mehmonxonalarda turistlar singari registratsiya qilinadi.

Ikkinchidan, hamma joylashtirish tashkilotlari ham o'zining shaxsiy statistik hisob-kitoblarini taqdim etishga majbur emaslar. Ko'pgina

mamlakatlarda pansionatlar, jihozlangan shaxsiy uylar va h.z. joylarda tunab qolgan turistlar ro‘yxatdan o‘tqazilmaydilar va ushbu mehmonlar statistik hisobga kiritilmay qoladi. Uchinchidan, bu usulda sayohat davomida joylashtirish vositalarini almashtiruvchi sayyohlarning ikki marta hisobga olinishini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Joylashtirish vositalaridan olingan tashriflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar chegarada olinganlaridan juda kuchli farq qilishi mumkin. [37]

Xalqaro turizm statistikasi 2 asosiy bo‘limni o‘z ichiga oladi [27]:

1) turistik oqimlar statistikasi

2) turistik daromad va xarajatlar.

Turistik oqim – bu mamlakatga turistlarning doimiy tashrif buyurishidir. Turistik oqim hajmi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi: sayyohlarning umumiy soni; tur kunlari soni; turistlarning mamlakatdagi (hudud) tashrifning davomiyligi.

Tur kunlarni hisoblash uchun tashrif buyuruvchilar sonini bir sayyohning mamlakatdagi tashrifi davomiyligi, ya’ni kunlar soniga ko‘paytirish zarur. Tur kunlari to‘g‘risidagi ma’lumot turizmning ijtimoiy infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini rejalashtirishda muhim sanaladi. Kvaltalnov V.  tomonidan ishlab chiqilgan “Turizm” nomi o’quv qo’llanmasida tur kunlarini quyidagi formula orqali topish mumkinligi keltirilgan:

$$T = S * h_{o‘rt}$$

Bu yerda,

T- tur kunlari, S – turistlar soni, $h_{o‘rt}$ - bir turistning hududdagi o‘rtacha tashrifi

Turistik oqim notekis hodisa sanaladi. Shuning uchun turistik oqim koeffitsiyentini ($K_n$) aniqlashning 3 xil usul kiritilgan:

$$1)\ K_n = \frac{D_{max}}{D_{min}} * 100\%$$

$$2)\ K_n = \frac{D_{max}}{D_{yil}} * 100\%$$

$$3)\ K_n = \frac{D_{max}}{D_{oy}} * 100\%$$

Bu yerda,

$D_{max}$, $D_{min}$ – bir oyda tur kunlari sonining turistik oqimi maksimal va minimalligi, (odam kun)

$D_{yil}$, $D_{oy}$ – tur kunlari sonining yillik va  oylik o‘rtachasi (odam kun). [27]

Turistik daromad va xarajatlar turistik oqimlar singari turli usullar bilan hisoblanadi. Xalqaro turizmning baho ko‘rsatkichlarini industriya tashkilotlari yoki banklarning tegishli hisobot shakllarida olish mumkin. Bank usuli xalqaro turistlar tomonidan amalga oshiriladigan valuta operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘ishdan tashkil topgan.

Markaziy (milliy) bank turizm sohasiga tegishli xorijiy banknotlarni sotib olish va sotish bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etuvchi tijorat banklari va valuta ayirboshlash joylari orqali turistik xarajatlar hisobini amalga oshiradi.

Bank usuli Fransiya va boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladi. Uning keng qo‘llanilishiga asosiy sabab ushbu usulning bir qancha afzalliklarga ega ekanligidir. Unda turistlardan qo‘shimcha axborot talab etilmaydi, chegaradagi rasmiyatchilikni va statistika organlari ishini osonlashtiradi. Ma’lumotlarga ishlov berish markaziy (milliy) bank tomonidan o‘lchov balansi tuzilayotganda amalga oshiriladi.

Hisobotning to‘g‘ri olib borilganda hamda valuta-moliyaviy bozor ustidan qattiq nazorat qilinganda bank usuli xalqaro baholashning nisbatan ishonchli usuliga aylanadi. Ammo ushbu usul ham kamchiliklardan holi emas.

Turistik xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘ishda turli xil usullardan foydalaniladi. Ulardan biri – kundalik shaklidir. U yordamida tashrif buruvchining bir sutkada qilgan o‘rtacha xarajatlari aniqlanadi. Kirimlarning umumiy summasi turistik tashriflar miqdori, bir sayyohning sutkasiga qilgan xarajatlari o‘rtachasi va bir sayyohning mamlakatdagi tashrifining o‘rtacha davomiyligiga ko‘paytmasini hisoblash yo‘llari orqali aniqlanadi.

Safarning boshida turistlarga sayohat davomida to‘ldirish va tugagach qaytarish iltimosi bilan maxsus blankalar tarqatiladi. Ularga xarajatlarning jami summasi uning bo‘limlari kiritiladi, tashrif maqsadi belgilanadi, tunashlar soni va shunga o‘xshash ma’lumotlar yoziladi. Ancha chuqur holatlarda kundalikga tashrif buyuruvchilar xarakteristikasini (yoshi, faoliyati), transport turi va xarajatlar amalga oshirilgan joylar kabi axborotlarni qamrab olgan qo‘shimcha bo‘limlar qo‘shiladi.

<table>
<tr><td colspan="7">Sayohat qiluvchi guruhdagi tashrif buyuruvchilar soni __________________<br>Tashrifdan asosiy maqsad _____________________________________<br>Asosiy belgilangan joy ____________________________________<br>Turar joy __________________________________________<br>Safar davomidagi tunashlar soni ____________________________</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Xarajatlar bo‘limi</td><td colspan="6">Xarajatlar (dollar)</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Safardan oldin</td><td colspan="3">Safar davomida</td><td rowspan="2">Jami</td></tr>
<tr><td>1 kun</td><td>2 kun</td><td>3 kun</td></tr>
<tr><td>Kompleks safarlar,turlar<br>Joylashtirish<br>Ovqatlanish va ichimliklar<br>Transport<br>Rekreatsion, madaniy va sport tadbirlariga qatnash<br>Magazinlarga borish<br>Boshqalar<br>Jami</td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td></tr>
</table>

**2.3-chizma. Turistik xarajatlar hisobi bo‘yicha kundalik shakli**

**Manba:** Александрова А.Ю. Статистика туризма. Учебник. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. — 152 стр.

Kundalik usuli (2.3-chizma) kuchi tomon bilan birgalikda kuchsiz jihatlarga ham ega. Uning yordamida turistik xarajatlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Yana bir ustunliklaridan biri, barcha to‘lov operatsiyalari amalga oshirilgach kundalikka darhol, tashrif buyuruvchi hali unutmasidan oldin kiritiladi.

Kundalikning eng asosiy kamchiliklaridan biri – kundalik shakllarining to‘liq to‘ldirilishi va qaytarib berilishining koeffitsiyenti kamligi bo‘lib, bu yig‘ilayotgan axborotning ishonchlilik darajasini pasayishiga olib keladi.

Birinchi ko‘rishda ushbu kamchilikni osonlikcha bartaraf etish mumkin. Bunda tarqatiladigan kundaliklar hajmini oshirish yetarlidir. Ammo bunday yechim faqatgina to‘liq to‘ldirilmaslik va blankalarning qaytarilmasligiga tasodifiy hodisalar sabab bo‘lganda amal qiladi. Maxsus taqdidot natijasi esa ular tizimli omillar harakatlari sababli yuzaga kelishi aniqlandi.

Shakllarni yozishda eng kam ish safariga chiqgan sayohatchilar ishtirok etib, ular sayohat davomida ancha yuqori xarajatlar qiluvchi vakillar sanaladilar. Shuning uchun ham, kundalikni to‘ldirgan va topshirgan shaxslarning barchasi umumiy tuzilmasi va jami tashrif buyuruvchilar soni doimo farq qiladi. Shubhasiz, tarqatiladigan kundaliklar sonini oshirish bilan ko‘rsatilgan istesnoni bartaraf etib bo‘lmaydi.

Kundalik usuli orqali kuzatuvni rejalashtirish va amalga oshirish oldida turgan vazifalardan biri – to‘ldirilgan blanklarning qaytarilishini kuchaytirishdir. Tarqatilgan kundaliklarning 70-75 foizi qaytarilishi nazorat natijalarining yetarli darajadagi yuqori ishonchliligini ta’minlaydi. Ushbu darajaga yetishishning real usullari mavjud. Bu usullarning barchasi tadqiqotda so‘rovchilarning ishtirok etishdan ijobiy manfaat olishlariga yo‘naltirilgan. Choralar kompleksiga – qisqa va oson tushuniladigan kundalik shakllarini tuzish, javoblar anonimligini kafolatlash, to‘ldirilgan blanklar qaytarilishining aniq belgilangan qoidalarini ishlab chiqish, anketa tuzuvchining so‘rov ishtirokchilariga shaxsan kundalikni to‘ldirish iltimosi bilan murojaat qilishi, sayyohlarga tadqiqotda natijalaridan olishi mumkin bo‘lgan potensial foydani tushuntirish, to‘ldirilgan blanklar uchun material va boshqa rag‘batlantirish vositalarning qo‘llanilishi kiradi.

Statistik kuzatuvlarni rejalashtirayotganda kuzatuv subyekti, ya’ni birlamchi axborotni kim yig‘ishi masalasini yechish lozim. Ayrim holatlarda – bu statistika organlari va ularning kardlari bo‘lsa, boshqa holatlarda – statistika mutaxassislari bilan bir qatorda keng jamoatchilik doirasi ham jalb qilinadi. Anketalarni to‘dirishda davlat aholisi ham ishtirok etishi mumkin. Masalan, AQSH turistlarni savol-javob qilish uchun intervyu oluvchilarni xorijiy tillarni

yaxshi biladigan, o‘qimishli, kommunikativ insonlar orasidan to‘plashadi. Ular odatda universitet va biznes-maktablarda dars berishadi.

**Turizmda maxsus uyushtiriladigan kuzatuv (nazorat).** Turistik oqimlarning va xarajatlar hisobining haqiqatga yaqin bo‘lishi statistika turizmi asosiy usullari (tashriflarning chegarada va joylashtirish vositalarida registratsiya qilinishi, hamda bank usuli) bilan maxsus tashkillashtirilgan kuzatuvlar orasida o‘zaro mos kelganligida ortadi.

Immigratsion xizmatlar, turistlar qabuli bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, banklar va valuya ayirboshlash joylari tomonlaridan taqdim etiladigan hisobotlar statistik ma’lumotning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi, ammo u turizmni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida barcha sohalarini qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun, u to‘g‘risidagi axborotlarning bir qismi maxsus statistik kuzatuvlar orqali olinadi. Ular, odatda, maxsus tadqiqotlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Qabul qilingan ma’lumotlar tizimlashtiriladi hamda ishlov beriladi, ular yordamida hisobotlar to‘ldiriladi va turistik faoliyatning alohida sohalarini o‘rganishga imkoniyat yaratiladi. [21, 152-155]

## 2.2. Xalqaro turizm statistikasida uchraydigan xatoliklar va ularni bartaraf etishning asosiy usullari

Statistikada barcha xatoliklar atayin qilingan va bexosdanlarga ajratiladi. Bexosdan yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar tasodifiy yoki tizimli xususiyatga ega. Atayin xatoliklar, so‘rovda qatnashuvchilar bilan bir qatorda ro‘yxatdan o‘tqazuvchilarning xato yozishi, bilmasligi va boshqalar sababli vujudga keladi. Ular doimiy bir xilda kamaytirilgan yoki ko‘paytirilganligi sababli ko‘zga tez tashlanadi va ushbu muammo keng miqyosdagi kuzatuvlar olib borilganda o‘zaro birlashib, bartaraf bo‘lib ketishi sababli kuzatuv natijalarida jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi. [37]

Atayin qilinmagan tizimli xatoliklar so‘rovlardagi yaxlit olingan miqdorli ko‘rsatkichlar (tashrif buyuruvchi yoshi, uning daromadi, tunashlar soni va hokazo) sababli yo‘l qo‘yiladi. Yoshni registratsiya qilayotganda, ko‘pincha, 0

va 5 raqamlarga moslab yaxlitlashtirish kabi holatlar kuzatilgan. Masalan, qaydlarga ko‘ra 40 yoshli turistlar 39 yoki 41 yoshlilarga nisbatan ancha ko‘proqdir. Bu hodisa statistikada **yoshni to‘plamlashtirish** deb nom olgan. Bunday xatoliklar yig‘ilgan statistik materialga ishlov berilayotganda tuzatiladi.

Atayin qilingan xatolar, nomidan bilish mumkinki, javob beruvchilarning ongli ravishda haqiqatni yashirish niyatida savolga noto‘g‘ri javob berishlari natijasida vujudga keladi. Bu xatoliklar axborotlarni bir yo‘sinda noto‘g‘ri yo‘nalishga boshlaydi, bunda ko‘rsatkichlarning hajmi pasaytiriladi (masalan, turistik firmaning pul aylanmasi), yoki oshiriladi. Atayin noaniq berilgan ma’lumotlar statistik tadqiqotlar uchun eng xavflidir. Ularni aniqlash va bartaraf etish uchun ko‘p kuch sarflash lozim bo‘ladi.

Statistik shakllardagi mavjud ma’lumotlarning to‘g‘riligi mantiqiy va arifmetik usullar bilan tekshiriladi. Mantiqiy nazorat davomida tuzilgan savollarga javobning muvofiq kelishi yoki programmaning turli savollariga javoblarning mos kelishi tekshiriladi. Masalan, agar “sayohat maqsadi” ustunida “avstraliyalik” yozilgan bo‘lsa, demak, javob savolga to‘g‘ri kelmaydi, bundagi xatolik esa javobning boshqa ustunga yozilganligidadir.

Summa, ayirma, ko‘paytma yoki boshqa amallar (turistik xarajatlar va ularning bo‘limlarga, hamda sayohat kunlariga taqsimlanishi) ko‘rinishida olingan miqdorli javoblarda hisob natijalari to‘g‘riligi mantiqiy nazorat bilan tekshiriladi va to‘ldiriladi.

Tanlovli (yaxlit bo‘lmagan) tadqiqotlarda, ularning xususiyatlaridan kelib chiqgan holda, yuqorida ko‘rsatilgan ro‘yxarga oluvchilarning xatoliklaridan tashqari, reprezentativ nuqsonlar ham uchrab turadi. Ular tadqiqot birliklarini noto‘g‘ri tanlaganda vujudga keladi.

Barcha aniqlangan kamchilik va nuqsonlar, imkon qadar, tuzatilishi shartdir. Buning uchun ayrim hollarda, nazorat savollarini ishlab chiqishga, telefon, pochta orqali rasmiy so‘rovlar o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. BTT mutaxassislari fikriga ko‘ra, katta miqdordagi mablag‘ sarf qilingan tadqiqotlardagi nuqsonlar 5 % dan oshmasligi lozim, boshqalari esa 13 % dan.

To‘plangan ma’lumotlar solishtirilgandan so‘ng, keyingi qadamlarga o‘tiladi. Ular jadvalga kiritiladi, keyinchalik o‘rtacha miqdorlarni hisoblayotganda va statistik ko‘rsatkichlar mazmunini aniqlashda qo‘llaniladi.

Turizm statistikasi odatda 3 turdagi asosiy muammolarga duch keladi. Ulardan birinchisi – ma’lumotlar bazasining o‘zaro mos kelishidir. U turizmning rivojlanish qonunlari tendensiyalarni aniqlash, undagi sodir bo‘layotgan vaqt va makon oralig‘idagi o‘zgarishlarni o‘lchash, turli mamlakatlarga tegishli bo‘lgan o‘zaro mos ko‘rsatkichlarni solishtirish kabi maqsadlarda axborotni o‘zaro taqqoslash imkoniyatlarini yaratadi. Statistik ma’lumotlarni tez-tez mazmunining tarkibi, hisob usuli yoki o‘lchov birliklari turlichaligi kabi muammolarga uchrashi sababli solishtirish mushkuldir. Ammo, ko‘pgina holatlarda taqqoslab bo‘lmaydigan axborotni o‘zaro mos holatga keltirish mumkin.

Hali hamon ko‘pgina mamlakatlarda, shu qatori O‘zbekistonda ham, statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda turizmga oid atamalar va sayohat qiluvchi shaxslarning klassifikatsiyasida nomuvofiqlik va tushunmovchiliklar mavjuddir. Masalan, “turist” so‘zi doimiy yashash joyidan (1 - 5 va undan ko‘p tunashlar) va sayohatchilarning yoshlari (14 yosh va undan yuqori) hamda sayohat maqsadi kabi tushunchalar amaliyotda turlicha qo‘llaniladi. 40% mamlakatlarda ekskursantlar tashrif buyuruvchilar hisobiga kiritilmaydi, 10 % davlatlarda esa ish safaridagilar sayohatchilar hisobiga kiritilmaydi. Shu bilan birga, tashriflarni ro‘yxatga olishda ayrim hollarda mehmonning doimiy yashash joyiga, boshqa hollarda esa shaxslarning fuqaroligiga qarab amalga oshiriladi. Bularning barchasi xalqaro tahlil va taqqoslarni amalga oshirishda to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Turizm statistikasining boshqa bir muammosi – statistik ma’lumotning to‘liq va aniq emasligidadir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, xalqaro turizm to‘g‘risidagi barcha kerakli axborotlarga qanday ega bo‘lish va qanday qilib to‘plangan bazadagi bo‘shliqlarni ishonchli ma’lumotlar bilan to‘ldirishdir.

Hozirgi kunda dunyoning hech bir mamlakatida turizm sohasining to‘liq hajmdagi tizimli kuzatuvi tashkil etilmagan. BTT hisobotlariga binoan, sayyoramizning 0.5 % aholisi istiqomat qiluvchi 18 mamlakat tomonidan xalqaro turistik oqimlarga doir hech qanday axborot taqdim etilmagan. Ularning ko‘pchiligi iqtisodiy kam rivojlangan va jahon turistik bozorida uncha katta bo‘lmagan hissaga ega. Yillik statistik ma’lumotlarni taqdim etiluvchilar ro‘yxatiga 202 mamlakat (hudud) kiritilgan. Hattoki, Fransiya statistik faoliyat yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakat bo‘lishiga qaramay, ushbu davlatning hisoblari ham katta kamchiliklar bilan olib boriladi. Turistik oqimlar statistikasida ekskursiya va qisqa muddatli ish safarlari ma’lumotlari muntazam taqdim etiladi.

Turli tuman statistik kuzatuvlar materiallari tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, dunyo mamlakatlari tomonidan kirish turizmi hisobi to‘g‘risidagi ma’lumotlar chiqish turizmiga nisbatan ancha kengroq taqdim etiladi. Mamlakatlar va tashkilotlar tomonidan beriladigan hisobotlarda yetishmaydigan axborotlarni BTT bosqichma-bosqich baholash usulini qo‘llash yo‘li orqali ega bo‘ladi. Dastlab, barcha davlatlar nisbatan o‘xshash jihatlarini hisobga olgan holda guruhlarga ajratiladi. Ular dunyo subregionlari bo‘yicha, undan so‘ng yashash darajasi bo‘yicha (mamlakatning aholi boshiga to‘g‘ri keladigan YaMM) birlashishadi. Har bir guruh uchun o‘rtacha birta tashrifdan olinadigan daromad va xorijga qilingan bir sayohat davomida sarflanadigan o‘rtacha xarajatlar hisoblanadi, ular asosida BTT mutaxassislari tomonidan oddiy matematik amallar orqali statistikaning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lgan ***turistik oqim, turistik daromad va xarajatlar*** aniqlanadi.[37]

Statistik kuzatuvlar natijasida qayta ishlashga va tarqoq ma’lumotlarni birlashtirishga va ishlov berilishga muhtoj bo‘lgan materiallar hosil bo‘ladi. Yig‘ilgan statistik ma’lumotlar tizimlashtiriladi, hamda klassifikatsiyalashtiriladi (guruhlarga ajratiladi), yig‘indi chiqariladi va ulardan foydalanib boshqa hisoblar olib boriladi.

Materiallarni ilmiy tashkillashtirilgan tizim yordamida qayta ishlanib, boshqa kuzatuv birliklariga tegishli bo‘lgan axborot bilan umumiylikni hosil qilishiga ko‘maklashadi. So‘nggi marotaba qayta ishlangan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu harakat evaziga, faktlardan tashkil topgan xulosalarning shakllantirish va aniq amaliy takliflar ishlab chiqilishda muhim va ajralmas bo‘lak bo‘lgan mustahkam asos shakllanadi. Ayrim hollarda statistik kuzatuvlar statistik prognoz bilan to‘ldiriladi.

Statistik kuzatuvning puxta ishlab chiqilgan rejasi - turizm to‘g‘risidagi ishonchli axborot olib bila olish garovidir. Ammo qanchalik darajada puxta ishlab chiqilgan bo‘lmasin, hamda har bir qadamni hisobchilar tomonidan sinchkovlik bilan boshqichma-bosqich amalga oshirilmasin, har qanday statistik kuzatuvlarda xatoliklar yoki kamchiliklar vujudga kelishi mumkin. Ular turli sabablarga ko‘ra hosil bo‘ladi: yaxlitlashtirishlar, shakllarni to‘ldiruvchilar savollarga noto‘g‘ri javob yozishi, respondentlar tomonidan aniq faktlarning unutilishi yoki yashirilishi va hokazo.

Xalqaro turistik tashriflar to‘g‘risida axborot taqdim etilmaydigan davlatlarning sonini topishda, xalqaro tashriflar miqdorini ushbu mamlakat mos ravishda to‘g‘ri keladigan guruhning birta tashrifdan olinadigan o‘rtacha daromadiga ko‘paytirish yo‘li orqali aniqlanadi. Agar mamlakatga qilingan xalqaro turistik tashriflarni aniqlash lozim bo‘lsa, xalqaro turizmdan olingan tushumlarni mamlakat tegishli bo‘lgan guruhining birta tashrifdan oladigan daromadning o‘rtachasiga bo‘linadi.

Kirish turizmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘pgina mamlakatlar tomonidan taqdim etilishi tufayli, odatda, ularning yig‘indisiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilmaydi. Chiqish turizmi statistik ko‘rsatkichlari sayohatga ketadigan o‘rtacha xarajatlarga asoslangan holda hisoblanadi. Mamlakatdagi xalqaro turizmning umumiy hajmi xorijga turistik safarlar miqdorini mamlakat mos ravishda to‘g‘ri keladigan guruhning sayohatga sarflaydigan xarajatlari o‘rtachasiga ko‘paytirish bilan topiladi. Statistik hisobot shakllardagi turistik jo‘nashlar ko‘rsatkichi bu – xalqaro turizmga qilingan xarajatlarning mamlakat

mos ravishdagi guruhining sayohat davomida sarflaydigan xarajatlariga o‘rtachasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Ushbu formulalar – xalqaro turizmga qilingan xarajatlar yoki jo‘nashlar sonini topishda qo‘llaniladi. Bunda har ikkalasidan biri ma’lum bo‘lgandagina ularning biridan foydalanib, ikkinchisini aniqlash mumkindir. Ammo ko‘pgina milliy turistik ma’muriyatlar chiqish turizmi statistikasini umuman olib borishmaydi va u to‘g‘risida hech qanday ma’lumotga ega emaslar. Bunday holatlarda xalqaro turizmga qilingan xarajatlarning miqdorini davlat aholisining umumiy sonini mamlakat mos ravishda to‘g‘ri keladigan guruhiga qarab jon boshiga sayohatda qilinadigan xarajatlar o‘rtachasi ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. So‘ng ma’lum formula yordamida jo‘nashlar soni hisoblanadi.

Boshqichma-bosqich hisoblash usuli BTT ga har bir mamlakat bo‘yicha chiqish turizmi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishga va jahon miqyosida umumiy yakunlarni hisoblab chiqarishga ko‘maklashadi.

Statistik kuzatuvlarda hujjatlarga ancha jiddiy qo‘shimcha va to‘ldirishlar xalqaro turistik tashuvlar va ularga qilinadigan xarajatlar qiymatini aniqlashda kiritiladi. Bunga tashuvlar to‘g‘risidagi birlamchi axborotning yomon yig‘ilishi sabablidir. Ushbu yetishmovchilik tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan formulalar yordamida to’ldiriladi.

Har bir mamlakatning yetib kelish va jo‘nashlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgandan so‘ng, ikkinchi bosqich – daromad va xarajatlarning tenglashtirilishi amalga oshiriladi. Jahon miqyosida xalqaro turizm va transport tashuvlaridan tushumlar xarajatlarga tenglashishi kerak, ammo statistik hisobot amaliyotida ularning miqdorlari o‘zaro mos kelmaydi. Ushbu ikkala qismni bir balansga keltirish uchun xarajatlar hajmini deyarli barcha milliy turistik ma’muriyatlarda mavjud bo‘lgan va ancha to‘liq hamda ishonchi hisoblanadigan daromadlar darajasiga qadar oshiriladi.

Bosqichma-bosqich baholash evaziga statistik hisobdagi kamchiliklar kamayadi va xalqaro turizm to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi oshadi.

Statistik ma’lumotlarning to‘liqligi va o‘zaro mosligi muammosi, ayniqsa, turizmning makroiqtisodiy ta’siriga oid tadqiqotlar olib borilayotganda muhim sanaladi. Turizmni iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanishi va aholi bandligining ancha yuqori bo‘lishini ta’minlovchi unumli soha sifatidagi ahamiyatini baholanishi – turizm statistikasining eng muhim vazifalaridan biridir. Uni amalga oshirish, aynan turizm industriyasi o‘zining murakkabligi va noodatiy sohaviy tabiati bilan statistik hisob uslubiyotining mukammal bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi sababli qiyinlashgan.

Bir xildagi mahsulot ishlab chiqarishga moslashgan boshqa sohalardan farqli ravishda, turizmda taklif etilayotgan mahsulot turistik bo‘lishi yoki bo‘la olmasligi uni kim, qachon, qayerda va nima uchun sotib olishiga bog‘liqdir. Mahsulotning so‘nggi iste’moli turistik industriyaning chegaralari, tarkibi va tuzilmasini aniqlab beradi. Uning bunday usulda talqin etilishi industriyaning umumiy qabul qilingan ta’riflarga mos kelmaydi.

Turistik tashriflar, daromad va xarajatlar ko‘rsatkichlari turistik mahsulot va uning faoliyat turlari, tarkibi to‘g‘risida hech qanday axborot bermaydi. Ma’lumotlar bazasining torligi, uslubiy birlikning va boshqa soha ko‘rsatkichlari bilan solishtira olish imkoniyati mavjud emasligi kabi muammolar, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini munosib baholashga to‘sqinlik qiladi. Shunga qaramay, turizm sektorining iqtisodiyotda tutgan o‘rni ravshandir.

Statistik hisoblarda turistik daromadlarni aniq miqdorini chiqarishda kamchilik va xatoliklar to‘qnash keladi. Statistik hisobotning bank usuli ham bundan mustasno emas. To‘lov balansini tuzishda markaziy (milliy) bank tomonidan ma'lumotlarga ishlov beriladi. Doimiy va operativ tizimlashtirilgan material turistik xarajatlar tahlilini jo‘shqinlik bilan olib borishga va undagi o‘zgarishlarni muntazam tekshirib borishga imkon beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan hisob va valuta-moliya bozori ustidan qattiq nazorat olib borilganda, bank usuli xalqaro turizmning nisbatan ishonchli bahoviy qiymati beradi. Ammo, shunday holatda ham, xatoliklarga yo‘l qo‘yilishining butunlay oldini

olib bo‘lmaydi. Turistik xarajatlarning haqiqiy qiymati ko‘pgina sabablarga ko‘ra noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin:

- parallel valuta bozorlari mavjudligi va moliyaviy suiste’mollar sababli. “Qora bozor” mavjud mamlakalarda, valuta oqimining bir qismi bank kanallarini chetlab o‘tadi. Lekin, valuta operatsiyalari bank tuzilmalari yordamida amalga oshirilgan holatlarda ham ularning registratsiya qilinishiga kafolat bermaydi. Kichik pul ayirboshlash shahobchalari soliqlar yukini kamaytirish maqsadida xorijiy banknotalar savdo-sotig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tez-tez yashirib turadilar va shu bilan turistik xarajatlar hajmini pasaytiradilar.

- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lov vositasi sifatida naqd pulni qo‘llashdan bosh tortish evaziga. Turistik korxona va tashkilotlarda kliring, ya’ni turistlar almashinuvida zararni qoplash va badallar tizimi, keng qo‘llaniladi. Ushbu operatsiyalar, hamda turistik mahsulot va xizmatlar uchun to‘lovlar tashrif buyuruvchilar tomonidan kredit kartalari bilan amalga oshirilsa, bank usulida ushbu operatsiyalar hisobga kiritilmaydi.

- Katta miqdordagi xalqaro valuta operatsiyalarini registratsiya qilish holatlarida. Ayrim mamlakatlarda ro‘yxatga olish mumkin bo‘lgan transmilliy operatsiyalar uchun eng maksimal darajagi chegara belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Odatda, o‘rtacha turistik xarajatlar ushbu kattalikdan oshmaydi va statistik hisobotlarda ko‘rsatilmaydi;

- Vaqtinchalik tashrif buyuradigan mamlakat hududida xorijiy sayohatchilarning valuta almashinishini amalga oshirmasligi holatida. Xalqaro turistik xarajatlar hajmi banklar tomonidan xorijiy valutani milliy valutaga ayirboshlangan summasi bilan o‘lchanadi. Turistlar o‘zlarining vatanida valuta ayirboshlab, o‘zi bilan olib kelgan yoki xorijdagi qarindoshlari va do‘stlaridan keyinchalik javobiy tashrif davomida to‘lanadigan badal sifatida olingan qarz qismi bank usulidan hisoblar olib boriladigan statistik hisobga kirmaydi.

- bank usuli yordamiga statistik hisob olib borish hududiy jihatdan turistik xarajatlar haqida batafsil tushuncha bera olmaydi. Mamlakatlar bo‘yicha hisoblar pul birliklaridan kelib chiqgan holda olib boriladi. Ularning ayrimlari,

sayohat nuqtai nazaridan juda keng hududga ega, hamda turli mamlakatlar bilan turistik alamashinuvlar amalga oshiradi. Ushbu holatda, bu davlatlar orasida valuta operatsiyalari taqsimotini aniqlash nafaqat mushkul, balki imkonsizdir.

Statistik hisobni takomillashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar jiddiy ishlar olib bormoqdalar. BTT boshchiligi ostida ijro etuchvi kengash huzurida Statistika Qo‘mitasi yaratilgan, sekretariat tarkibiga ega statistika sektori kiradi. Ushbu tuzilmali bo‘linmalarga turizm sohasiga oid statistik tadqiqotlarning tamoyillarini hamda uslubiyotlarini ishlab chiqish, so‘rovlarni o‘tkazishga va to‘plangan axborotlarni qayta ishlashga ko‘maklashish, tajriba almashinishni amalga oshirish vazifalari yuklatilgan. Ular tomonlaridan ma’lumotlarni yig‘ish, hisobotlar tayyorlash uchun shakllar va boshqa xalqaro statistika va ichki turizmga oid savollar bo‘yicha metodologiyalar tayyorlangan.

Ahamiyatli voqealardan biri, BTT ning Kanada hukumati bilan hamkorlikda o‘tkazilgan Ottava shahridagi 1991-yilgi Sayohat va turizm statistikasi bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘lib xizmat qildi. Unda BTT Bosh assambleyasi tomonidan ma’qullangan qo‘llanmalar va tavsiyanomalar ommaga taqdim etildi. Ular orasida eng mashhurlaridan biri, “Turizm sohasidagi statistik so‘rovlarni  amalga oshirish uslubiyoti” va “Milliy turistik ma’muriy boshqarma tarkibidagi statistika masalalari bo‘yicha xizmatni shakllantirish va uning faoliyati” deb atalgan BTT tayanch yo‘l-yo‘riqlaridir. Ottava konsfereniyasining yakunlariga ko‘ra, BTT tomonidan “Turizm statitikasi bo‘yicha tavsiyanoma” tayyorlandi va BMT Statistik komissiyaga ko‘rib chiqilishiga taqdim etildi. Ushbu hujjatning qabul qilinish va chop etilishga taqdim etilishi turizm sohasidagi statistik faoliyatning takomillashtirilishidagi katta qadam bo‘lib xizmat qildi.

Tavsiyanomalarda asosiy e’tibor statistik ma’lumotlarning milliy va xalqaro darajada o‘zaro mosligiga qaratilgan. Ushbu maqsadda, ularda turizmning tavsifi berilgan, hamda uning asosiy turlari (ichki, chiqish va kirish) ajratib ko‘rsatilgan, xalqaro va ichki tashrif buyuruvchilar ta’riflari aniqlashtirilgan. “Milliy turizm” va “mamlakat miqyosidagi turizm” kabi yangi

tushunchalar ilmiy ravishda muomalaga kiritilgan. Yana bir maxsus bob turistrik xarajatlar, ularning bo‘limlari va to‘lov balansidagi ifodasiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, hujjatlar jamlanmasiga Turizmdagi faoliyat turlarining standart xalqaro klassifikatsiyasi kiritilgan.

Dasturiy hujjatlar bilan bir qatorda BTT tomonidan davriy nashrlar ham chiqariladi. Ular “Yillik turistik statistika” ("Yearbook of Tourism Statistics"), “Turizm statistika to‘plami” ("Compendium of Tourism Statistics"), “Xorijiy turizm – chegaradagi rasmiyatchilik” ("Travel Abroad - Frontier Formalities") va oylik nashr etiladigan “BTT dunyo turizm ko‘rsatkichlari” (“BTT World Tourism Barometer”) kabilardir. So‘nggi yillarda turistik muammolarni butunligicha qamrab oluvchi eng yangi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan konyunktura-tadqiqodiy to‘plamlari chiqa boshladi. Masalan, “Turizm rivojlarnishi to‘g‘risidagi hisobot” ("Tourism Development Report (policy and trends)"), “Turizm va sayohatlar rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlari” ("Current Travel Tourism Indicators") va hokazolar.

O‘zbekistonda turizm statistikasini olib boruvchi tashkilot bo‘lib Statistika qo‘mitasi sanaladi. Statistik ma’lumotlar har yili chop etilishiga qaramay, ular kamchiliklardan xoli emas. BTT tomonidan har yili chop etiladigan (BTT Tourism Highlights) hisobotda mamlakatlarning yil davomidagi xalqaro turizm tendensiyasi ko‘rsatiladi. Uning 2013-2015-2016-yillardagi sonlarida O‘zbekistonning xalqaro statistikasi to‘g‘risida axborot keltirilganligiga qaramay, barcha sonlarda 2010- va 2013-yilgi xalqaro turistik tashriflar va xalqaro turizmdan olingan daromadlar keltirilgan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun, avvalam bor, xalqaro statistika turizmini olib boruvchi tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish, jahon tajribasini o‘rganish, olingan bilim va malakalar asosida mamlakatimiz turizm statistikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozimdir. Bundan tashqari, mamlakatning hozirgi kundagi turistik salohiyatini ko‘rsatib beruvchi, to‘liq, barcha xalqaro talablarga javob bera oladigan va statistik ma’lumotlarni tartibga soladigan yagona metodologik qo‘llanma ishlab

chiqish lozim deb hisoblaymiz. Bunday metodologik qo‘llanma turistik tashkilotlar va statistika qo‘mitalariga umumiy ko‘rsatkichlarga asoslangan turizm statistika ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va ommaga taqdim etishga ko‘maklashuvchi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turizm statistikasi mamlakatning turistik salohiyati, potensiali va investitsion jozibadorligini ko‘rsatuvchi manba hisoblanadi. Statistik ma’lumotlar qanchalik aniq va ishonchli bo‘lsa, u orqali olib borilgan kuzatuv va tahlillarning aniqligi va samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Shuning uchun, mamlakatimizning turizm statistikasini takomillashtirish va xalqaro standartlarga javob beradigan tizimni shakllantirish va amaliyotga joriy etish belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

## II bob bo’yicha xulosa

Statistik shakllardagi mavjud ma’lumotlarning to‘g‘riligi mantiqiy va arifmetik usullar bilan tekshiriladi. Mantiqiy nazorat davomida tuzilgan savollarga javobning muvofiq kelishi yoki programmaning turli savollariga javoblarning mos kelishi tekshiriladi.

**Turizmda maxsus uyushtiriladigan kuzatuv (nazorat).** Turistik oqimlarning va xarajatlar hisobining haqiqatga yaqin bo‘lishi statistika turizmi asosiy usullari (tashriflarning chegarada va joylashtirish vositalarida registratsiya qilinishi, hamda bank usuli) bilan maxsus tashkillashtirilgan kuzatuvlar orasida o‘zaro mos kelganligida ortadi.

Turistik oqimlarning va xarajatlar hisobining haqiqatga yaqin bo‘lishi statistika turizmi asosiy usullari (tashriflarning chegarada va joylashtirish vositalarida registratsiya qilinishi, hamda bank usuli) bilan maxsus tashkillashtirilgan kuzatuvlar orasida o‘zaro mos kelganligida ortadi.

Statistikada barcha xatoliklar atayin qilingan va bexosdanlarga ajratiladi. Bexosdan yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar tasodifiy yoki tizimli xususiyatga ega. Atayin xatoliklar, so‘rovda qatnashuvchilar bilan bir qatorda ro‘yxatdan o‘tqazuvchilarning xato yozishi, bilmasligi va boshqalar sababli vujudga keladi.

Atayin qilinmagan tizimli xatoliklar so‘rovlardagi yaxlit olingan miqdorli ko‘rsatkichlar (tashrif buyuruvchi yoshi, uning daromadi, tunashlar soni va hokazo) sababli yo‘l qo‘yiladi. Yoshni registratsiya qilayotganda, ko‘pincha, 0 va 5 raqamlarga moslab yaxlitlashtirish kabi holatlar kuzatilgan. kamchiliklarni bartaraf etish uchun, avvalam bor, xalqaro statistika turizmini olib boruvchi tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish lozimdir.

# III bob. O‘zbekistonda turizm statistikasini shakllantirishni xalqaro standartlarga moslashtirish

## 3.1. O’zbekiston turizm statistikasi tizimida islohotlarni amalga oshirish

O’zbekistonning turizm statistikasini Davlat statistika qo’mitasi tartibga soladi. Bundan tashqari turizm faoliyatini davlat miqyosida tartib soluvchi tashkilot vazifasini 1992-yil 27-iyuldan 2017-yilga qadar «O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasi zimmasiga yuklatilgan edi.

“O’zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida “O’zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi” faoliyatining asosiy vazifalaridan biri etib “turizm faoliyati sohasida birinchi navbatda BMT ning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo’yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, **xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish**” belgilangan. [3]

BTT tomonidan chop etiladigan Highlights va “Annual Report 2015” jurnallari, Avstriya Milliy Turizm Offisining 2015-yilgi hisoboti hamda BTT tomonidan hozirgi statistika ma’lumotlar eng mukammal tayyorlanadigan mamlakat deb tan olingan Fransiyaning “Parij shahri Muhim Raqamlari, 2016” hujjatlari o’rganib chiqilib, ular asosida quyidagi ko’rsatkichlar yagona jadvalga birlashtirgan hisobot e’lon qilinishi tavsiya etiladi:

1) ichki turizm, xalqaro turizm, jami tashrif buyuruvchilar miqdori;
2) mavsumiy va mavsumiy bo’lmagan davrlarda tashrif buyuruvchilarning soni;
3) xalqaro turistik daromadlar, xarajatlar, ularning birta turistga to’g’ri keladigan o’rtachasi;
4) Turistik kunlar jamisi va birta turistga to’g’ri keladigan o’rtachasi;
5) O’zbekistonga boshqa davlatdan kelgan tashrif buyuruvchilar va ularning jamiga nisbatan ulushi.

**3.1 - jadval**

## Davlatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kelgan tashrif buyuruvchilar (chet el fuqarolari) soni (kishi)

| № | Mamlakatlar | Tashrif buyuruvchilar (kishi) | | Farqi (%) | 2015-yilning jamiga nisbatan ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2014 | 2015 | | |
| 1 | Qozog'iston | 1 142 865 | 1 250 812 | 107947 | 65,22 |
| 2 | Tojikiston | 275 602 | 212 376 | -63226 | 11,07 |
| 3 | Qirg'iziston | 114 296 | 139 790 | 25494 | 7,3 |
| 4 | Rossiya | 117 531 | 113 318 | -4213 | 5,91 |
| 5 | Turkmaniston | 39 714 | 46 845 | 7131 | 2,44 |
| 6 | Turkiya | 37 927 | 36 256 | -1671 | 1,89 |
| 7 | Koreya | 28 852 | 25 679 | -3173 | 1,34 |
| 8 | Afg'oniston | 16 690 | 18 414 | 1724 | 0,96 |
| 9 | Hindiston | 18 602 | 18 058 | -544 | 0,94 |
| 10 | Xitoy | 11 317 | 11 758 | 441 | 0,61 |
| 11 | Eron | 8 214 | 6 315 | -1899 | 0,33 |
| 12 | Germaniya | 7 777 | 5 529 | -2248 | 0,29 |
| 13 | BAA | 4 353 | 4 802 | 449 | 0,25 |
| 14 | Fransiya | 5 964 | 3 540 | -2424 | 0,18 |
| 15 | Isroil | 3 247 | 3 439 | 192 | 0,18 |
| 16 | Ozarbayjon | 3 519 | 2 905 | -614 | 0,15 |
| 17 | Italiya | 3 433 | 2 421 | -1012 | 0,13 |
| 18 | Malaziya | 3 260 | 2 404 | -856 | 0,13 |
| 19 | Yaponiya | 2 417 | 2 276 | -141 | 0,12 |
| 20 | Ukraina | 4 478 | 2 269 | -2209 | 0,12 |
| 21 | Birlashgan Qirollik | 1 920 | 1 810 | -110 | 0,09 |
| 22 | AQSH | 1 365 | 1 206 | -159 | 0,06 |
| 23 | Tailand | 1 145 | 1 186 | 41 | 0,06 |
| 24 | Belarus | 630 | 1 127 | 497 | 0,06 |
| 25 | Litva | 612 | 755 | 143 | 0,04 |
| 26 | Latviya | 563 | 384 | -179 | 0,02 |
| 27 | Pokiston | 14 | 361 | 347 | 0,02 |
| 28 | Gruziya | 135 | 225 | 90 | 0,01 |
| 29 | Saudiya Arabiston | 71 | 212 | 141 | 0,01 |
| 30 | Ispaniya | 1534 | 186 | -1348 | 0,01 |
| 31 | Polsha | 345 | 168 | -177 | 0,01 |
| 32 | Vyetnam | 36 | 148 | 112 | 0,01 |
| 33 | Avstriya | 131 | 88 | -43 | 0,005 |
| 34 | Chexiya | 1 874 | 68 | -1806 | 0,004 |
| 35 | Belgiya | 77 | 67 | -10 | 0,004 |
| 36 | Qatar | 40 | 59 | 19 | 0,003 |
| 37 | Quvayt | 55 | 50 | -5 | 0,003 |
| 38 | Shveysariya | 77 | 46 | -31 | 0,002 |
| 39 | Slovakiya | 50 | 46 | -4 | 0,002 |
| 40 | Bolgariya | 63 | 28 | -35 | 0,001 |
| 41 | Ruminiya | 17 | 24 | 7 | 0,001 |
| 42 | Gretsiya | 39 | 23 | -16 | 0,001 |
| 43 | Estoniya | 27 | 22 | -5 | 0,001 |
| 44 | Sloveniya | 68 | 21 | -47 | 0,001 |
| 45 | Vengriya | 38 | 20 | -18 | 0,001 |
| 46 | Avstraliya | 31 | 4 | -27 | 0,0006 |
| 47 | Shvetsiya | 12 | 7 | -5 | 0,0004 |
| 48 | Boshqa xorijiy mamlakatlar | 854 | 115 | -739 | 0,006 |
| 49 | Boshqa MDH mamlakatlar | 80 | 52 | -28 | 0,004 |
| **Jami** | | 1 861 961 | 1 917 714 | 55 753 | 100 |

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekistonda Turizm, 2016" deb nomlangan statistik to'plamda mamlakatimizga tashrif maqsadlari quyidagilarga ajratilgan:

1. Turistik firma va tashkilotlar
2. Mehmonxona va boshqa turdagi joylashtirish maskanlari
3. Kurort-sanatoriya maskanlari
4. Dam olish tashkilotlari
5. Turistik zonalar

Ushbu maqsadlar yuzasidan yurtimizga 50 dan ortiq mamlakatlardan tashrif buyuruvchilar turistik safarlarni amalga oshirishadi. Mavjud raqamlar yordamida 3.1 - jadval shaklida ma'lumotlarni e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mamlakatlar ro'yxati, tashrif buyuruvchilar soni, oldingi yildan farqi hamda jamiga nisbatan ulushi kabilar hisobi olib borilishi va birta jadvalda birlashtirilishi, undagi axborotning barchaga tushunarli bo'lishiga sabab bo'ladi deb hisoblaymiz.

Statistika ma'lumotlarni mavsumiy va mavsumiy bo'lmagan davrlarga ajratib taqdim etilishi, mavjud axborotlarni turli yo'nalishlarda qo'llashga, mamlakat turistik salohiyatiga chuqur baho berishga ko'maklashadi.

**3.2 - jadval**

**Avstriya mamlakati tashrif buyuruvchilar**

| Tashrif buyuruvchilar | 2015 yilning qish fasli | 2015 yilning yoz fasli | 2015 yil |
|---|---|---|---|
| ***Turistik kunlar*** | **65.8 mln (+2.1%)** | **69.4 mln (+3.3%)** | 135.2 mln (+2.5%) |
| Ichki turizm | 15.2 mln (+0.7%) | 21.1 mln (+2.7%) | 36.4 mln (+2.1%) |
| Xalqaro turizm | 50.6 mln (+2.5%) | 48.3 mln (+3.5%) | 98.8 mln (+2.6%) |
| **Tashriflar** | **17.5 mln (+3.6%)** | **21.9 mln (+6.3%)** | **39.4 mln (+4.9%)** |
| Ichki turizm | 5.2 mln (+2.4%) | 7.4 mln (+4.0%) | 12.7 mln (+3.5%) |
| Xalqaro turizm | 12.2 mln (+4.1%) | 14.5 mln (+7.5%) | 26.7 mln (+5.6%) |

**Manba:** Tourism in Austria: Facts & Figures, Factsheet Tourism in Austria 2015. [Elektron resurs]: https://newsroom-en.austriatourism.com/tourism-in-austria-facts-figures/

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, Avstriya mamlakatining statistik ma'lumotlari ikkiga ajratilib, qish va yoz mavsumlari statistik ko'rsatkichlari

yordamida talqin etiladi. Ushbu tizimni mamlakatimizda qo'llanilishi, har bir mavsumning jamiga nisbatan ulushini aniqlashga ko'maklashadi. Bunday axborot, ayni qaysi mavsumda tashrif buyuruvchilarning oqimi ko'pligini ko'rsatish, bundan kerakli xulosalar chiqarib, mavsumiylikni yumshatishda yangi takliflar ishlab chiqishga manba bo'lib xizmat qiladi.

Turistik daromadlarni hisoblash, turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini aniq sonlarda ifodalashga, turizm sohasidan kelayotgan daromadlarni aniqlashga ko'maklashadi.

**Xalqaro Turistik Daromadlar** (XTD) – bu belgilangan mamlakatning kirish turizmidan oladigan tushumlari. [110] XTD faoliyat doirasi:

- XTD turizmdagi tashrif buyuruvchilarning xorijga tashrifi bilan bog‘liq xarajatlardan olinadigan barcha daromadlarni o‘zida mujassamlashtiradi.
- Bir kecha hamda bir kunlik safardan olingan daromadlarni qamrab oladi.
- Boshqa mamlakatlar rezidentlari tomonidan yollanadigan (masalan, milliy kompaniya bilan sayohat qiluvchi xorijliklar chiptalaridan olinadigan daromadlar) xalqaro tashuvlar bilan bog‘liq daromadlar hisobga olinmaydi.

**Turistik xarajatlar** – turistik safarga otlanish va sayohat davomida sotib olingan iste'mol tovarlari va xizmatlar, shuningdek shaxsan foydalanish yoki boshqa shaxslarga yetkazish uchun sarflanadigan mablag‘. Ularga tashrif buyuruvchilarning o‘zlari to‘lagan, hamda boshqa shaxslar tomonidan to‘lanadigan yoki o‘rni qoplanadigan xarajatlar kiradi.

**3.3 - jadval**

**Turistik xarajatlar tarkibi**

| Xarajat yo‘nalishlari | Ichki turizm | Xalqaro turizm |
|---|---|---|
| *1. Safardan oldingi xarajatlar* | | |
| 1.1. Ko‘chmas mulk, uzoq muddat | kiritilmaydi | kiritilmaydi |

| | | |
|---|---|---|
| davomida ishlatiladigan narsalarni (*shahar tashqarisidagi hovli, avtomashina, avto-furgon, yaxta va hokazo*) sotib olish. Ular turistik maqsadlarda ham qo‘llanilishi mumkin. | | |
| 1.2. Nafaqat safar davomida, balki keyinchalik ham ishlatilsa bo‘ladigan uzoq muddat foydalaniladigan katta bo‘lmagan narsalarni va kundalik hayotda qo‘llaniladigan tovarlarni (*yo‘lda qo‘llaniladigan narsalar, sport inventari va boshqalar*) xarid qilish yoki ijaraga olish. | kiritilmaydi | kiritilmaydi |
| 1.3. Kutilayotgan sayohatda ko‘rsatiladigan xizmatlar haqining oldindan to‘lanishi (*kompleks turlar, joylashish, tashish, hamda turistik sug‘urtaga ega bo‘lish*). | kiritiladi | chiqish turizmi – xalqaro tashuvlardan mustasno, faqatgina mahalliy aholining o‘z mamlakatidan tashqaridagi sayohati davomida ko‘r-satiladigan xizmat-largina kiradi;<br><br>kirish turizmi – xalqaro tashuvlardan mustasno, faqatgina xorijiy turistlar tashrif buyurayotgan mamlakatda ko‘rsa-tiladigan xizmatlargina kiradi. |
| 1.4. safardan oldin taqdim etiladigan va u bilan bog‘liq xizmatlar to‘lovi (avtomashinalarning texnik xizmati va hokazo) | kiritiladi | kiritilmaydi |
| *2. Safar davomidagi xarajatlar* | | |
| 2.1. Tashrif buyuruvchilar tomonidan, shu jumladan, ish safarida ish beruvchi nomidan amalga oshiriladigan tijorat faoliyati | Kiritilmaydi | Kiritilmaydi |
| 2.2. Qarindoshlar yoki tanishlar tomonidan dam olish safari davomida beriladigan naqd pullar, lekin turistik | Kiritilmaydi | Kiritilmaydi |

| | | |
|---|---|---|
| tovar va xizmatlar to‘lovi uchun emas; xayriya to‘lovlari | | |
| 2.3. Ko‘chmas mulk, uzoq muddat davomida ishlatiladigan narsalar (shahar tashqarisidagi hovli, avtomashina, avto-furgon, yaxta va hokazo) sotib olish. Ular turistik maqsadlarda qo‘llanilgan taqdirda ham. | Kiritilmaydi | Kiritilmaydi |
| 2.4. Odatiy yashash muhitidan tashqarida doimiy iste’mol qilinadigan tovarlarni arzon narxlarda xarid qilish | Kiritiladi | Kiritiladi |
| 2.5 Boshqa katta hajmdagi xarajatlar (mashinaning kapital ta’mirlash va boshqalar) | Kiritiladi | Kiritiladi |
| 2.6. Uzoq muddat davomida ishlatiladigan va kundalik hayotda qo‘llaniladigan katta bo‘lmagan tovarlar, ulardan foydalanish vaqti va joyidan qat’iy nazar, xarid qilish. | Kiritiladi | Kiritiladi |
| 2.7. Suvenirlar xarid qilish | Kiritiladi | Kiritiladi |
| 2.8. Sayohat davomida olinadigan xizmatlar haqi to‘lovi (tashish, joylashish va boshqalar) | Kiritiladi | Kiritiladi |
| 2.9. Belgilangan joylardagi boshqa mahsulotlar (xizmatlar) xaridi. Shu jumladan, bojsiz tovarlar, ularning narxi va iste’mol xususiyatidan qat’iy nazar. Tijorat savdosi va ko‘chmas mulk sotib olish bundan mustasno. | Kiritiladi | chiqish turizmni – kiritiladi; chiqish turizmi – faqatgina xorijiy turistlar tashrif buyurgan mamlakatlarida amalga oshirilgan xaridlar kiritiladi |
| *3. Safardan keyingi xarajatlar* | | |
| 3.1. Safar bilan bog‘liq tovarlar (xizmatlar) sotib olish (fotosuratlarni chiqarish, sayohat davomida buzilgan avtomashinani ta’mirlash, va hokazo). Ko‘chmas mulk va boshqa uzoq muddatli qo‘llaniladigan tovarlarni xarid | Kiritiladi | Kiritilmaydi |

| | | |
|---|---|---|
| qilish bundan mustasno. | | |

**Manba:** Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. - М.: Аспект Пресс, 2002. 22 стр.

Ushbu jadvalda BTT manbalarida turistik xarajatlarni aniqlashda tavsiya etgan usullari bo'lib, uning yordamida mamlakatga kelgan tashrif buyuruvchilarning turistik xarajatlari hisoblanishi maqsadga muvofiqdir. (3.4-jadval)

**3.4 - jadval**

**Avstriya mamlakati turistik daromadlari**

| Turistik daromadlar | 2015-yil qish fasli (€) | 2015-yil yoz fasli (€) | 2014-yil |
|---|---|---|---|
| Ichki turizm | 12.7 mlrd (+5.8%) | 11.3 mlrd (+2.5%) | 23.2 mlrd (+1.8%) |
| Xalqaro turizm | 2.7 mlrd (+0.4%) | | 5.8 mlrd (+1.6%) |
| **Jami** | **10.0 mlrd (+6.3%)** | | **17.4 mlrd (+1.9%)** |

**Manba:** Tourism in Austria: Facts & Figures, Factsheet Tourism in Austria 2015. [Elektron resurs]: https://newsroom-en.austriatourism.com/tourism-in-austria-facts-figures/

Har bir sayyoh boshqa mamlakat hududida ma'lum vaqt davomida bo'lishi sababli, xalqaro turizmning umumiy hajmi mamlakatga xorijiy turistlarning tashrifi davomiyligi o'rtachasidan bog'liqdir. Shu sababdan, ichki va xalqaro turizmda turistlarning umumiy hisobi bilan bir qatorda sayyohlarning mamlakat hududida yashagan kunlari – turistik kunlar muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Amaliyotda, ko'pgina mamlakatlar tomonidan ushbu ko'rsatkich **"tunashlar soni"** deb qayd etiladi.

Tunash amalga oshiriladigan safarlar davomiyligi tunlar soni bilan belgilanadi. Birinchi kun ertalab sahardan boshlanadigan va so'nggi kun kechki vaqtda yakunlanuvchi safarlar hisobiga hech qanday tuzatishlar kiritilmasligi lozim. Tunash amalga oshirilmaydigan safarlar, tashrif davomiyligi necha soat bo'lishidan qat'iy nazar, bir kunlik safarlar (ekskursantlar kategoriyasi) deb qaralishi kerak.

**Turistik kunlar** miqdori sayyohlarning umumiy sonini bir turistning mamlakat yoki hududdagi tashrifi kuni o‘rtachasiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. [27]

$$D = R * t_{o‘r}$$

Bu yerda,

D – turistik kunlar miqdori, kishi-kun;

R – umumiy turistlar soni, kishi;

$t_{o‘r}$ – bir sayyohning ma’lum bir mamlakat hududidagi tashrifi davomiyligi o‘rtachasi, kun.

**Oylik o‘rtacha turistik kunlar** turistik kunlar miqdorining 12 oyga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$D_{O‘O} = \frac{D_{yil}}{12_{oy}}$$

Bu yerda

$D_{o‘o}$ – turistik kunlar oylik o‘rtachasi, kishi-kun;

$D_{yil}$ – turistik kunlar yillik miqdori.

BTT tomonidan belgilangan shartlar asosida hamda yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanib turistik kunlar hisobi chiqarilib, jadval tariqasida taqdim etilsa, maqsadga muvofiq bo’lardi. (3.5-jadval)

**3.5 - jadval**

**Avstriyaning tashrif buyuruvchilari va turistik kunlar miqdori (2015-yil)**

| **Turizm turlari** | **Tashriflar (2015-yil)** | | | | **Turistik kunlar (2015-yil)** | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tashrif buyuruvchi | Ulush (%) | Oldingi yilga nisbatan farqi (%) | 2014 yildan farqi | Turistik kunlar | Ulushi (%) | Oldingi yilga nisbati farqi (%) | 2014 yildan farqi |
| Ichki turizm | 12,695,876 | 32.2 | 3.5 | 430,735 | 36,422,767 | 26.9 | 2.1 | 755,055 |
| Xalqaro turizm | 26,718,945 | 67.8 | 5.6 | 1,427,574 | 98,777,839 | 73.1 | 2.6 | 2,544,812 |
| **Jami** | **39,414,821** | **100.0** | **4.9** | **1,858,309** | **135,200,606** | **100.0** | **2.5** | **3,299,867** |

**Manba:** Tourism in Austria: Facts & Figures, Factsheet Tourism in Austria 2015

[Elektron resurs]: https://newsroom-en.austriatourism.com/tourism-in-austria-facts-figures/

Xulosa qilib aytilganda, hozirgi kunda mamlakatimiz turizm statistikasini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish uchun qaror va farmonlar qabul qilinganligi kabi ilk qadamlar amalga oshirilgan bo'lib, endilikdagi asosiy vazifa berilgan imkoniyatlardan foydalanib mavjud statistik axborotlarni mukammallashtirish va xalqaro darajada ommaga e'lon qilishdir.

## 3.2. Statistik ma'lumotlarni yig'ishning vizalarga asoslangan tizimini shakllantirish yo'llari

Vizalar xalqaro sayohatchilar safarining ajralmas bo'lagi bo'lib, mamlakatga turistik oqimning ko'pligi yoki kamligi ham aynan vizalar olish tizimi bilan chambarchas bog'liq sanaladi. Shu sababdan ham, hozirgi kunda turistik oqimning hajmini oshirish, hamda potensial turistlarni jalb qilish maqsadida "vizasiz" tartib qo'llamoqdalar.

Turistik oqimni jalb qilish maqsadida mamlakat administrativ bo'limi tomonidan interaktiv usullardan tortib qonuniy-normativ hujjatlar qabul qilish kabi turli xildagi chora tadbirlar amalga oshirilib, ular yordamida tashrif buyuruvchilar sonini yanada ko'paytirishga erishmoqdalar.

Bizning mamlakatimizda ham 2016-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni 1 – bandida "viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish" hamda 6-bandida "barcha mamlakatlar uchun 30 kun muddatga beriladigan yagona turizm vizalarini joriy etish; xalqaro aeroportlarda va O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida vizalarni olish, shu jumladan tranzit vizalarni olish tartibini sezilarli ravishda **soddalashtirish**" va "2021 yilning 1 yanvariga qadar muddatda: vizalarni rasmiylashtirish va berish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, shu jumladan, Tashqi ishlar

vazirligining konsullik boshqarmasiga va O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalariga tashrif buyurmasdan viza olishga hujjatlarni topshirish va so'rovnomalarni to'ldirishda **onlayn** tizimdan foydalanish,...” kabilar belgilangan. [4]

Elektron viza – bu eski usul o'rniga kelgan o'ziga xos nou-xaudir. Elektron vizalarni faqatgina onlayn olish mumkin. Ya'ni barcha anketa va hujjatlar tarmoq orqali taqdim etiladi. Bunda konsul bilan hech qanday suhbat amalga oshirilmaydi. Ular, odatda, turizm, qisqa muddatli o'qish yoki professional safarlar uchun qo'llaniladi.

Birinchi bo'lib elektron vizalar Avstraliyada qo'llanilgan. Asta sekin, ushbu tizim boshqa mamlakatlarda ham tadbiq etila boshladi.

Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar, shu qatori O'zbekiston ham elektron vizalar tizimiga o'tmoqda. Bu rasmiylashtirish jarayonini ham elchixona, ham ariza beruvchi uchun osonlashtiradi. Ariza beruvchi faqatgina konsullik bo'limi elektron pochtasiga safarga tegishli bo'lgan axborotlarni yuborishi, internet orqali viza to'lovlarini amalga oshirishi va javobni kutishi yetarlidir. Elektron vizalar qog'ozlidan farqli ravishda, ancha tezroq beriladi. Bu vizalar bo'yicha qaror qabul qiluvchilarga axbrotning tez yetkazilishi evaziga amalga oshadi (3.1 -rasm).




**3.1 – rasm. Onlayn vizaga ega bo'lish jarayoni**

**Manba:** Hindiston elektron vizalar taqdim etish veb portali. Elektron resurs https://indianvisaonline.gov.in/visa/tvoa.html

Vizaga ariza yoki viza berish muassasasi saytiga ariza beruvchining o'zi tomonidan beriladi (bu tizim Avstraliyada qo'llaniladi), yoki akkreditlangan

agent orqali (masalan, Singapur mamlakati) taqdim etilmoqda. Odatda, mamlakatga qilinadigan tashrifdan 72 soat oldin ariza topshirilishi lozim va passport yaroqlilik muddati kamida 6 oy davomida tugallanmasligi shart.

Ko‘pincha, onlayn vizalar minimal muddatlarga, ayrim mamlaktlarda maksimal 30 kundan, boshqalarida esa ko‘pi bilan 90 kungacha taqdim etiladi. Agar mamlakatga onlayn viza olish imkoniyati mavjud bo‘lsa, bu shu davlatga barcha turdagi vizalarni onlayn olib bilish imkoniyatini beradi degani emas. Ayrim hududlarda onlayn vizalarning turlari chegaralangan.

Mamlakatda elektron vizalar tizimi qabul qilinishi, bu u yerga viza olish osonlashadi degan ma’noni anglatmaydi. Masalan, Avstraliya ushbu tizimga o‘tgan bo‘lishiga qaramay elchixonaga taqdim etilishi kerak bo‘lgan hujjatlar haligacha juda ko‘p. Farqi, tayyorlangan hujjatlar elchixona elektron pochtasiga yuborilishidadir.

Onlayn jarayonlarning o‘ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda elektron vizalar pullik, ular mamlakatning belgilangan aeroportlari tomonidangina qabul qilinadi, shuning uchun ham ma’lumotlarni oldindan aniqlash zarur.

Elektron vizaning ustunlik jihatlari:

- pasportga yopishtiriladigan viza va orqasidagi muhr o‘rniga faqatgina kichik kirish va chiqish muhrlari bosiladi, bu esa pasport betlarini tejalishiga olib keladi;
- 72 soat ichida ariza yuboruvchining pochtasiga qabul qilinganlik yoki qilinmagan to‘g‘risidagi javob keladi. Demak, safarga bilet olish yoki olmaslikni 3 kun oldin bilish mumkin;
- viza taqdim etuvchi shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rishish yoki suhbatdan o‘tish kerak emas.

Ushbu jihatlari bilan bir qatorda elektron vizaning kamchiliklari ham mavjud. Ularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- chegarada aloqa bilan muammo tug‘ilishi. Shuning uchun har doim viza tasdiqining qog‘oz variantidan bir nusxa olib yurish kerak;

- ayrim mamlakatlarda biznes-viza Internet orqali  berilmaydi;
- elektron vizaning qog‘oz variantini chiqarib olish zarur, elektron qurilmalar orqali ko‘rsatish ta’qiqlangan;
- bir xil davlatlarda elektron vizalar faqat havo yo‘llari orqali tashrif buyuruvchilarga taqdim etiladi, agar sayohatchi suv yoki yer orqali safarni amalga oshirsa, ular vizani belgilangan usulda olishlari kerak;
- elektron vizaliklar uchun chegaradan o‘tishda hech qanday alohida yo‘laklar yoki navbatlar mavjud emas.

Hozirgi kunda ko‘plab tashrif buyuruvchilarni o‘ziga jalb qilayotgan mashhur turistik jozibador joylardan biri bo‘lmish Hindistonda ham ushbu tizim keng foydalanishga joriy etilgan. Unda “E-Tourist Visa” deb nomlangan tizim hukumat portal bo‘lmish **https://indianvisaonline.gov.in/visa/tvoa.html** sayti orqali onlayn vizaga ariza berish mumkin (3.2- rasm). 60 $ miqdoridagi to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, 4 kun ichida ariza topshiruvchining elektron pochta qutisiga 30 kunlik elektron viza yuboriladi. To‘lovlar onlayn tarzda amalga oshiriladi.




**3.2- rasm. Hindiston elektron viza taqdim etuvchi portal**

**Manba:** https://indianvisaonline.gov.in/visa/tvoa.html

Bu xizmatidan bir yilda 2 marta foydalansa bo‘ladi va faqat belgilangan aeroportlardagina qo‘llanilsa bo‘ladi. Ular: Dehli, Mumbay, Kalkutta, Chennai, Tiruvanantapurami, Bangalor, G‘aydarobod, Goa va Kochchi shaharlaridagi mahalliy aeroportlar. 150 dan ortiq mamlakatlarga o‘z eshigini ochgan bu mamlakatga maksimal 30 kunlik onlayn viza taqdim etiladi. Quyidagi shartlarga javob beruvchilarga mazkur tizimdan foydalanishlari mumkin:

1. Hindistonga dam olish, ekskursiya, qarindosh va do‘stlari bilan ko‘rishish, qisqa muddatli tibbiy davolanish yoki ish bo‘yicha safar kabi maqsadlarda tashrif buyurmoqchi bo‘lgan xalqaro sayohatchilar;
2. Pasport yaroqlilik muddati hindistonga kelishdan boshlab 6 oy muddat davomida tugamasligi;
3. Xalqaro sayohatchilar qaytish chiptalariga yoki sayohatni davom ettirish uchun boshqa chiptaga va sayohat uchun o‘zlari bilan yetarlicha mablag‘ olib kelishlari lozim, summasi belgilab qo‘yilmagan;
4. Diplomatik/rasmiy pasportlarga ruxsat berilmagan;
5. Har bir kishi o‘zining shaxsiy pasportiga ega bo‘lishi shart, ota-ona yoki turmush o‘rtog‘i hujjatlari bilan olishga ruxsat etilmagan;
6. *“International travel document”* sohiblariga yaroqli emas.

O‘rganilgan nazariy axborotlar va xorijiy davlatlarning amaliy faoliyati tahlilidan olingan xulosalar natijasida mamlakatimizda elektron vizalarni tadbiq etilishida beriladigan asosiy takliflar quyidagilardan o‘rin olgan. Avvalo, vizalarga ariza qabul qilinishining yagona darchasini yaratish. Yagona darcha yordamida barcha axborotni bir joyga jamlash va ma’lumotlar uyg‘unligiga ega bo‘lish mumkin.

“Yagona oyna” ning joriy etilishi ham hukumatga ham foydalanuvchilar uchun samarali usul hisoblanadi. Ushbu mexanizm joriy etilishida xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan tavsifnomalar, standartlar va boshqa vositalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Mavjud standart va vositalar yordamida faoliyatlar birligiga erishish, o‘xshash tizimlar orasida o‘zaro ma’lumotlar almashish kabi imkoniyatlar vujudga keladi.

Ikkinchidan, elektron vizalar taqdim etiladigan sayt orqali mamlakatimiz tashrif buyuruvchilari sonini hisoblashda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bunday usul turizm statistikasiga uzluksiz axborot oqimini ta’minlaydi.

Oldingi rejada aytib o‘tilganidek, onlayn vizalarga arizalar qisqa muddat davomida safar uyushtiruvchilarga taqdim etiladi. Bunda tranzit yo‘lovchilar, qisqa muddat davomida tibbiy davonalish, ish safarlari, qisqa vaqt oralig‘ida ta’lim olishga borish kabilar bo‘lib, BTT tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanoma bo‘limlarida ushbu sayohatchilarning barchasi tashrif buyuruvchilar kategoriyasiga kiritilgan. Demak, turizm statistikasida onlayn viza bilan safar qiluvchilarning hammasi turist va ekskursantlarni o‘zida birlashtiruvchi tashrif buyuruvchilar deb hisobga olinib, ularning hisobini olib borish uchun ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Hisoblagich ayni saytda o‘rnatilishi uni yaratuvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi deb hisoblaymiz. Bunda elektron viza olishga anketani to‘ldirganlarning hisobi hamda ularda qanchasida ijobiy javob berilganligi miqdorini olib borilishi tavsiya etiladi. Ariza topshiruvchilarning hajmi to‘g‘risidagi ma’lumot mamlakatga tashrif buyurmoqchi bo‘lgan potensial turistlarning hajmini baholashdagi manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Turizm statistikasini ishonchli va kamchiliklardan xoli axborot bilan ta’minlay olish har bir mamlakatning turizm sohasini rivojlantirish yo‘lida turgan asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda 2021-yilda joriy etilishi rejalashtirilgan onlayn viza tizimining asosiy maqsadi bilan bir qatorda, turizm statistikasini mukammallashtirishda yaratiladigan saytidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## 3.3. O‘zbekiston turizm statistikasini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar

Hozirgi kunda turizm sohasini rivojlantirish yo‘lida qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri mukammal darajaga yetkazilgan, yagona va o‘zaro taqqoslay olinadigan ko’rsatkichlarga asoslangan statistik hisobotlarni tuzishdan iboratdir. Ushbu maqsad amalga oshirilsa, turizm statistikasi to‘g‘risidagi eng to‘g‘ri axborotga erisha olish imkoniyati vujudga keladi.

Turizm statistikasini xalqaro darajada olib boruvchi tashkilot sanalmish BTT tomonidan ma’lumotlarni tartibga solish va jahon miqyosida yagona ko‘rsatkichlarga birlashtirish maqsadida turli tavsiyanoma va uslubiyotlar qabul qilingan bo‘lib, ular orqali mamlakatimizning turizm sohasiga oid axborotlarni yig’ish, statistik kuzatuvlar olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g’risida” gi qonunining 3-moddasida turist, turizm, ekskursiya faoliyati kabi tushunchalarga ta’rif berilgan, ammo ushbu kategoriyalarni o‘zida birlashtiruvchi “tashrif buyuruvchi” ko‘rsatkichi mavjud emas. Vaholangki, hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab asosiy maqsadi daromad olish bo‘lmagan barcha sayohatchilar hisobini olib borishda ayni shu atama qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, ushbu moddada ekskursantlar faoliyatiga quyidagicha izoh berilgan: “turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi **24 soatdan oshmaydigan** ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi”. BTT ning “Turizm Statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar, 2008” metodologiyasida turistlar kategoriyasini tahlil etishda, tashrif buyuruvchi mamlakatga kelganiga 24 soat bo‘lmagan holatlarda ham, tunash amalga oshirganda “turist” kategoriyasiga kiritilishi shart deb belgilangan. Agar tashrif buyuruvchi kelgan hududida tunash amalga oshirmasa, masalan, bir necha soat davomida sport musobaqalarini tomosha qilib, tunash amalga oshirmasdan ertasi kuni qaytib ketsa “ekskursant” deb hisoblanadi.

BTT tomonidan dunyo mamlakatlarining turizm statistikasi to‘g’risidagi axborotlari yillik, mavsumiy va boshqa jurnallarda xalq ommasiga taqdim

etiladi. Shulardan biri, 2001-yildan beri har yili nashr etiladigan "Tourism Highlights" bo'lib, unda mamlakatlarning yil davomidagi xalqaro turizm tendensiyasi koʻrsatiladi.

BTT ga a'zo mamlakatlarning xalqaro turistik tashriflari soni, hamda xalqaro turistik daromadlar toʻgʼrisida axborot beriladi. Unda dunyo mamlakatlari makro hudud jihatidan 5 ga ajratilgan boʻlib, Oʻzbekiston Yevropa davlatlari guruhining Markaziy/Sharqiy Yevropa qismiga kiritilgan. Eng birinchi Oʻzbekiston turizmi toʻgʼrisidagi axborot 2013-yilgi sonida chop etilgan.

**3.6 – jadval**

**Markaziy/Sharqiy Yevropa mamlakatlari xalqaro turistik tashriflar va daromadlar koʻrsatkichlari (2013-yil)**

| Destinatsiyalar | Xalqaro Turistik Tashriflar | | | | | | | Xalqaro Turistik Daromadlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | (1000) | | | Farqi (%) | | | Ulush (%) | AQSH $ (million) | | | Ulush (%) |
| | 2010 | 2011 | 2012 | 10/09 | 11/10 | 12/11 | 2012 | 2010 | 2011 | 2012 | 2012 |
| **Markaziy/ Sharqiy Yevropa** | **94,968** | **103,932** | **111,640** | **3.1** | **9.4** | **7.4** | **20.9** | **48,080** | **56,014** | **56, 971** | **12.4** |
| Armaniston | 687 | 758 | 843 | 19,5 | 10,3 | 11,3 | 0,2 | 408 | 446 | 451 | 0,1 |
| Ozarbayjon | 1,280 | 1,562 | 1,966 | 27,4 | 22,0 | 27,1 | 0,4 | 657 | 1,287 | 2,433 | 0,5 |
| Belarusiya | 120 | 116 | 119 | 26,3 | -3,3 | 2,3 | 0,0 | 440 | 487 | 664 | 0,1 |
| Bolgariya | 6,047 | 6,328 | - | 5,4 | 4,6 | - | - | 3,637 | 3,967 | 3,748 | 0,8 |
| Chexiya | 8,629 | 9,019 | 8,908 | -2,5 | 4,5 | -1,2 | 1,7 | 7,121 | 7,628 | 7,035 | 1,5 |
| Estoniya | 2,372 | 2,665 | 2,744 | 15,2 | 12,4 | 3,0 | 0,5 | 1,073 | 1,429 | 1,226 | 0,3 |
| Gruziya | 1,067 | 1,319 | 1,790 | - | 23,6 | 35,7 | 0,3 | 659 | 955 | 1,411 | 0,3 |
| Vengriya | 9,510 | 10,250 | 10,353 | 5,0 | 7,8 | 1,0 | 1,9 | 5,381 | 5,580 | 4,845 | 1,1 |
| Qozog'iston | 3,393 | 4,093 | 4,438 | 8,8 | 20,6 | 8,4 | 0,8 | 1,005 | 1,209 | 1,347 | 0,3 |
| Qirg'iziston | 1,316 | 3,114 | - | -38,7 | 136,6 | - | - | 284 | 640 | 698 | 0,2 |
| Latviya | 1,373 | 1,493 | 1,435 | 3,8 | 8,7 | -3,9 | 0,3 | 640 | 771 | 745 | 0,2 |
| Litva | 1,507 | 1,775 | - | 12,4 | 17,8 | - | - | 958 | 1,323 | 1,313 | 0,3 |
| Polsha | 12,470 | 13,350 | 14,840 | 4,9 | 7,1 | 11,2 | 2,8 | 9,526 | 10,683 | 10, 938 | 2,4 |
| Moldova Respublikasi | 64 | 75 | 89 | 6,8 | 17,9 | 18,6 | 0,0 | 173 | 195 | 213 | 0,0 |
| Ruminiya | 1,343 | 1,515 | 1,653 | 5,3 | 12,8 | 9,1 | 0,3 | 1,140 | 1,418 | 1,467 | 0,3 |
| Rossiya Rederatsiyasi | 20,271 | 22,696 | 25,736 | 4,4 | 11,9 | 13,4 | 4,8 | 8,830 | 11,328 | 11, 187 | 2,4 |
| Slovakiya | 1,327 | 1,460 | 1,511 | 2,2 | 10,1 | 3,4 | 0,3 | 2,233 | 2,429 | 2,299 | 0,5 |
| Tojikiston | - | - | - | - | - | - | - | 4 | 3 | - | - |
| Turkmaniston | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Ukraina | 21,203 | 21,415 | 23,013 | 1,9 | 1,0 | 7,5 | 4,3 | 3,788 | 4,294 | 4,842 | 1,1 |
| **Oʻzbekiston** | **975** | - | - | **-19,8** | - | - | - | **121** | - | - | - |

**Manba:** UNWTO Tourism Highlights, 2013 Edition. [Elektron resurs] URL: www.e-unwto.org/doi/pdf/10.18111/9789284415427

Jadvalga binoan, O‘zbekistonda 2010 yilda xalqaro turistik tashriflar miqdori 975 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, xalqaro turistik daromadlar 2010-yilda 121 mln AQSh dollari miqdorda bo‘lgan. 2011-2012-yillar to‘g’risida hech qanday ko‘rsatkichlar taqdim etilmagan. 2013-yilgi sonda keltirilgan jadval (3.6-jadval) bilan 2016-yildagi ma’lumotlar (3.7-jadval) solishtirganda, har ikkalasida ham bir xil ma’lumotlar berilganligini ko‘rish mumkin.

**3.7 – jadval**

**Markaziy/Sharqiy Yevropa mamlakatlari xalqaro turistik tashriflar va daromadlar ko‘rsatkichlari (2015-yil)**

| Destinatsiyalar | | | | | | | | Xalqaro Turistik Daromadlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | (1000) | | | Farqi (%) | | | Ulush (%) | AQSH $ (million) | | | Ulush (%) |
| | 2010 | 2013 | 2014 | 2015 | 13/12 | 14/13 | 15/14 | 2015” | 2010 | 2013 | 2014 |
